


KULAYOTGAN ODAM





VIKTOR GYUGO

II





TIRILISH

821.133.1-31
G 11

VIKTOR GYUGO

KULAYOTGAN ODAM

ROMAN

FRANSUZ TILIDAN TARJIMA

TOSHKENT – 2025

UO'K 821.133.1-311.6
KBK 84Fra-44
V 57

Viktor Gyugo.
Kulayotgan odam [Matn] Roman (Fransuz tilidan tarjima) / Viktor Gyugo. – Toshkent, "TRUST AND SUPPORT" nashriyoti, 2025. – 480 b.

Tarjimon: Shoazim Minovarov

XIX asr Fransiya adabiyotining yirik vakili, yevropa adabiyotida romantizm oqimi asoschilaridan biri Viktor Gyugo "Xo'rlanganlar", "93-yil", "Parij avliyo bokirasi ibodatxonasi", "Kulayotgan odam" kabi ma'lum va mashhur asarlarning muallifidir. Gyugo asarlaridagi har bir qahramon juda chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunni o'ziga singdirgan ramziy personajdir.

XVIII–XIX asrlarda Fransiya va yevropa siyosiy-ijtimoiy hayotidagi o'ta muhim voqyealar hamda asarlaridagi qahramonlar taqdiri kesimida yozuvchi azaliy va abadiy qadriyatlar – oliyjanoblik, to'g'rilik, muhabbat va ularning aksi – hasad, kibr, sotqinlik to'g'risida mahorat bilan hikoya qiladi.

O'zbekiston va Fransiya ko'pqirrali hamkorligining 30 yilligi arafasida adibning mashhur "Kulayotgan odam" romanining o'zbek tilida e'lon qilinishi xalqlarimiz va madaniyatlarimizni yanada yaqinlashtiradi degan umiddamiz.

ISBN 978-9910-8646-1-2

TOSHKENT ... AXBOROT ... KAZI
№ 2026/№8-87

© Viktor Gyugo, 2025
© "TRUST AND SUPPORT", 2025



♦ 2 ♦-KITOB

"QIROL BUYRUG'I BILAN"



III

QISM

DARZ
KETISH



TEDKASTER MEHMONXONASI

O'sha davrda Londonda birgina, ustiga uylar qurib tashlangan London ko'prigi bo'lardi. Bu ko'prik shaharni Sautvork – Temzaning shag'ali yotqizilgan tor ko'chalari va yo'laklari jinko'cha bo'lib ko'rinadigan qishloq bilan bog'lardi; Londonga o'xshab Sautvork tartibsiz qurib tashlangan turli inshootlar, turar joylar va yog'och kulbalardan iborat bo'lib, yong'in uchun yaxshigina yemish edi; 1666-yil buni isbotlagandi.

Sautvork so'zini u zamonlarda Soudrik, deb talaffuz qilardilar, bizning kunlarda esa, taxminan Souzvork deydigan bo'lganlar. Qolaversa, inglizcha atamalarni talaffuz qilishning eng yaxshi yo'li ularni umuman talaffuz qilmaslikdir. Masalan, Sautgempton o'rniga Stpntn, deb qo'yavering.

U zamonlarda Chetem deyish o'rniga Je t'aime (Je tem – seni sevaman) deyishardi.

Vojirar Marselga qanchalar o'xshasa, u paytlardagi Sautvork hozirgi Sautvorkka shunchalar o'xshardi. O'sha paytdagi qishloq, aytmoqchi, anchagina faol bandargoh, endi shaharga aylangan. Bir ko'zlarning inshshotlarini eslatadigan Temza ustidagi uzun, qadimiy devorga daryo kemalari bog'lanadigan hal-

qalar mahkamlab qo'yilgandi. Devorni Efrok devori yoki Efrokstoun deb atardilar. Hali York saksonlarning qo'lidaligida uning nomi Efrok bo'lgan. Afsonaga ko'ra, devorning etagida allaqanday efrok gersogi o'zini cho'ktirib yuborgan ekan. Umuman olganda, bu yerning chuqurligi har qanday gersog uchun ham kifoya qilgan bo'lardi. Hatto suv qaytgan paytlarda ham bu joylarning chuqurligi olti qulochdan kam bo'lmasdi. Langar tashlash uchun o'ta qulay bo'lganidan bu yer dengiz kemalarini ham o'ziga jalb qilar va ancha yoshga kirgan qorni katta golland shxunasi "Vograat" odatda Efrokstoun yonida langar tashlardi. "Vograat" har hafta Londondan Rotterdamga va Rotterdamdan Londonga to'g'ridan-to'g'ri qatnovni amalga oshirardi. Boshqa kemalar kuniga ikki marta Detfort, Grinich yoki Grefsendga qatnashar, suv qaytishi bilan jo'nashar va suv ko'tarilganda, qaytib kelishardi. Grevsendga o'tish, masofa yigirma milga yetmasa ham, olti soat vaqt olardi.

"Vograat" shxunasi endilikda faqat dengiz muzeylarida uchratish mumkin bo'lgan kemalar sirasiga kirardi. Uning haddan tashqari katta gavdasi jonkaga biroz o'xshab ketardi. O'sha davrlarda Fransiya Gretsiyaga taqlid qilardi, Gollandiya esa – Xitoyga. Ikki machtali og'ir shxuna Vograatning tryumida suv o'tkazmaydigan ikki qatlam devorlari bo'lar, o'rtada chuqur kayutasi bor, burun va dum qismida esa, minorachalar bilan ta'minlangan hozirgi temir kemalardan farqli ravishda, palubaning bortlari yo'q edi. Bortlarning yo'qligi bo'ron paytida to'lqinlarning bosimini kamaytirib berardi, ammo ushbu imtiyozning

yomon tomoni ekipaj xavf ostida qolardi: yo'lida hech bir to'siqqa uchramagan to'lqinlar odamlarni to'g'ri dengizga yuvib ketardilar. Bunday halokatlar shunchalar ko'p sodir bo'lardiki, pirovardida bunday kemalardan voz kechishga to'g'ri kelgandi. Odatda "Vograat" Grevsendda to'xtamay, to'g'ri Gollandiyaga o'tib ketardi.

Efrokstounning pastki tomonida qadimgi tosh karniz, qisman qoya, qisman sun'iy yasalgan, cho'zilib ketgandi; u kemalarga suvning balandligi qancha bo'lishidan qatinazar, langar tashlashga imkon berardi. Bir nechta yeriga narvon o'rnatilgan ushbu devor Sautvorkning janubiy chegarasini belgilardi. Turoq bilan to'ldirilgan qismi yo'lovchilarga Efrokstounning ustiga, qirg'oq bo'yi to'siqlarida bo'lgani kabi, tirsak qo'yish imkonini berardi. Bu yerdan Temzani tomosha qilsa bo'lardi. Daryoning narigi tomoni Londonning chegarasi edi; u yog'iga dalalar boshlanardi.

Efrokstounning yonida, Temza aylanib oqadigan joyda, Avliyo Jem saroyining deyarli qarshisida va Lambet-Xauzning yonginasida, o'sha paytlarda Foks-Xoll deb ataluvchi xalq saylgohidan uzoq bo'lmagan joyda, chinni idishlar ishlab chiqaruvchi kulolchilik ustaxonasi va rangli shishalar tayyorlovchi oyna zavodining o'rtasida Fransiyada bulvarlar, Angliyada esa bowling–greens deb ataluvchi maydonlardan biri joylashgandi. "Shar dumalatadigan yashil maysazor" mazmunini anglatadigan bowling-green atamasini biz boulingrin qilib o'zgartirdik. Bizning davrimizga kelib bunday maysazorlarni uylarga ko'chirdilar, faqat endi

ularni stollar ustiga joylashtiradilar: qoplama o'rniga yashil rangli movut tortiladi va bu narsa bilyard deb ataladi.

Aytmoqchi bir narsa tushunarsiz bo'lib qolyapti: nega bowling-green atamasiga to'la mos keladigan bulvar (boulevard – boule-vertye "yashil shar") so'zi bo'la turib, boulingrin atamasini o'ylab topganmiz? Lug'at atalmish shunchalar jiddiy tuzilma qanday qilib ushbu isrofgarchilikka yo'l qo'yib kelyapti ekan?

Sautvork "yashil o'tlog'i" bir vaqtlar "Tarinz–Moklayn" unvoni bilan ham yurgan Gastings baronlariga tegishli bo'lgani uchun Tarinzofild deb atalgan. Gastings baronlaridan Tarinzofild Tedkaster baronlariga o'tgan, ular esa, keyinroq borib Orlean gersoglaridan biri Pale–Royalni daromad manbaiga aylantirgani kabi, xalq sayllari o'tkaziladigan joy sifatida ijaraga bera boshlaganlar. Vaqt o'tishi bilan Tarinzofild jamoa mulki sifatida cherkov ixtiyoriga o'tkazilgan.

Tarinzofild doimiy saylgohni eslatadigan joy bo'lib, u yerda ko'zboylog'ichlar, dorbozlar, masxarabozlar, musiqachilarning aravalari qator bo'lib turar, doimo arxiyepiskop Sharpning ta'biri bilan aytganda "shayton o'yinni ko'rgani" kelgan bekorchilar to'dalashib yurishardi. "Shayton o'yinni ko'rish" tomoshani ko'rishni anglatardi. Bayramona turli ranglarga burkangan ushbu maydonda bir necha tamaddixonalar bo'lib, ularning ayrimlari teatrlarning tomoshabinlarini tortib olar, boshqalari esa, ularga tomoshabin yetkazib berardilar. Tamaddixonalarning oshiqlari olchi edi. Bular faqat kunduzlari ochiq bo'lgan oddiy qovoqxonalar edi. Oqshomlari xo'jayin qovoqxonani qulflar, kaliti-

ni cho'ntagiga solib, jo'nab qolardi. Ushbu maskanlardan bittasigina mehmonxonaga o'xshash bo'lib, "yashil o'tloq"dagi yagona pishiq qurilgan imoratga joylashgandi, negaki saylgohdagi boshqa inshootlarni istalgan lahzada yig'ib tashlash mumkin edi: ushbu daydi qiziqchilarni hech narsa bir joyga bog'lab qo'ya olmasdi. Masxarabozlar ko'chmanchi hayot kechiradilar.

O'tloqning sobiq xo'jayinlari ismidan kelib chiqib, ushbu maskan Tedkaster mehmonxonasi nomi bilan yuritilardi va qovoqxonaga qaraganda ko'proq musofirxonani eslatardi, mehmonxonaga ham emas, tamaddixonaga ko'proq o'xshardi; uning kattagina hovlisi bo'lib, hovliga katta darboza orqali kirilardi.

Maydonga qarab ochiladigan darboza Tedkaster musofirxonasiga asosiy kirish joyi vazifasini o'tardi; mijozlar odatda darboza yonida o'rnatilgan eshikdan foydalanardilar. Hamma joyda va har doim odamlar asosiy kirishdan foydalanmaslikni afzal ko'radilar. Bu eshik maydon va tamaddixonani bog'lab turgan yagona vosita vazifasini bajarardi. Eshikdan to'g'ri keng, lekin ko'rimsiz, past shipli, devorlarini chirk bosib ketgan tamaddixonaga kirilardi. Eshikning ustginasida, ikkinchi qavatda deraza bo'lib, uning temir panjarasiga musofirxonaning nomi yozilgan taxtacha ilingandi. Mahkam tambalangan darvoza esa hech qachon ochilmasdi. Hovliga kirish uchun tamaddixona orqali o'tilardi.

Tedkaster musofirxonasini xo'jayin va gumashta boshqarardilar. Xo'jayinni Nikls amaki, xizmatkorni Govikem, deb chaqirardilar. Ismi aslida Nikolay

bo'lgan, lekin inglizcha talaffuz oqibatida Niklsga aylangan Nikls amaki mudom qonun desa titroq bosadigan, xasis so'qqabosh kimsa edi. Uning qoshlari quyuq, qo'llarini jun qoplagandi. Mijozlarga xizmat ko'rsatadigan va Govikem desalar, labbay deb javob beradigan o'n to'rt yoshlik o'spiringa kelsak, uning kallasi katta va yuzi doim kulib turardi. Oldiga peshband taqilgan, sochlari esa, birovga tobeligini bildirish uchun, tipratikon usulida oldirilgandi. Govikem past qavatda, ilgari itning ini bo'lgan, kichkinagina uychada yashardi. "Yashil o'tloq"qa qaragan dumaloq teshik uychaning derazasi o'rnini bosardi.

2

OCHIQ OSMON OSTIDAGI NOTIQLIK

Oqshomlarning birida, sovuq va shamol esib turgan havoda, hech kimning ko'chada turib qolgisi kelmaydigan ob-havo sharoitida Tarinzofilddan o'tib ketayotgan notanish bir odam kutilmaganda Tedkaster mehmonxonasining devori oldida to'xtab qoldi. 1704—1705-yilnig qishi oxirlab qolgandi. Kiyimiga qaraganda bu odam dengizchi bo'lib, kelishgan, baland bo'yli – saroy odamlariga xos bo'lgan, lekin oddiy insonlarga ham yarashadigan fazilatlarga egaydi. U nega to'xtadi ekan? U eshitish uchun to'xtagandi? Nimani? Devorning na-

rigi tomonidan, ko'rinishdan hovlidan kelayotgan ovozni; ovoz qari odamniki edi, lekin u shunchalar baland ediki, ko'chadan eshitilib turardi. Ayni paytda, ovoz yangrayotgan hovlidan olomonning g'ovur-g'uvuri kelayotgandi. O'sha odam quyidagilarni aytayotgandi:

– Londonning erkaklari va ayollari, mana men oldingizda turibman. Sizlarni ingizlar ekaningiz bilan chin qalbimdan tabriklayman. Siz buyuk xalqsiz. Aniqroq qilib aytaman: Siz buyuk avom xalqsiz. Shpagalarda emas, ko'proq mushtlashishda zo'rsiz. Ishtahangiz ham ajoyib. Sizlar boshqa xalqlarni yeb tashlayotgan millatsiz. Ajoyib mashg'ulot! Boshqalarni g'ajib tashlay olish qobiliyati Angliyani butkul boshqacha o'ringa qo'yadi. O'z siyosatingiz va falsafangizda, mustamlakalarni va butun–butun xalqlarni qo'lga kiritish san'atida, hunarmandchilik va sanoatda, o'zingizga foyda keltiradigan zulmni boshqalarga qilish borasida hech kim sizga teng kelolmaydi, sizlar ajoyibsizlar! Yaqin orada shunday kun keladiki, yer sharini ikkiga bo'ladilar: bittasiga: "Odamlar mulki", ikkinchisiga "Inglizlar mulki", deb yozib qo'yadilar. Aytib qo'yay, hammasini shuhratingizni deb aytyapman, o'zimning na unisiga, na bunisiga aloqam yo'q, negaki men ingliz ham, odam ham emasman; men ayiq bo'lish sharafiga muyassarman. Shuningdek men shifokorman, biri ikkinchisiga halaqit qilmaydi. Jentelmenlar, men saboq beraman. Nimadan, deysizmi? Ikki turli yo'nalishdan: bilgan narsamdan va bilmagan narsamdan. Men habdorilar sotaman va g'oyalar ulashaman. Yaqinroq kelib, eshitinglar. Sizlarni ilm-fan chaqiryapti. Quloqlaringizni

yaxshilab ding qiling: agar ular kichik bo'lsa, ko'p haqiqat yetib bormaydi; agar ular juda katta bo'lsa, ko'p bema'ni narsalar kirib, joylashishi mumkin. Shunday qilib, diqqat: men Pseudodoxia epidemica fanidan saboq beraman. Mening bir o'rtog'im bor, u kulishni o'rgatadi, men esam – fikrlashni. Ikkalamiz bir qutida yashaymiz, illo kulgu qanchalar oliyjanob bo'lsa, ilm ham shunchalar oliyjanobdir. Demokritdan: "Qanday qilib haqiqatga yetishasan", deb so'raganlarida, u "Tabassum qilib", deb javob bergan ekan. Agar mendan: "Nega kulyapsan?" deb so'rasalar, men: "Chunki, haqiqatga yetishdim", deb javob beraman. Aytmoqchi, men umuman kulmayman. Men irim-sirimlardan xalos etaman. Sizlarning miyalaringizni tozalamoqchiman. Ular juda ortiqcha narsaga to'lib ketibdi. Xalqqa yanglishish va aldanib qolishga ijozat berilgan. Ortiqcha kamtarlikni yig'ishtirib qo'yaylik; to'ppa-to'g'risini aytishim kerakki, men xudoga ishonaman, ammo shayton vasvasasini ko'rsam, ya'ni axlat yig'ilib qolganini ko'rsam, irimlarni esa axlat, deb hisoblamoq kerak, uni supurib tashlayman. Bilishingni qayerdan bilasan, deysizmi? Bunisi endi mening ishim. Har bir odam o'zicha o'qib-o'rganadi. Laktansiy Vergiliyning bronza kallasini so'roqqa tutgan, u ham javob qilgan. Silvester Ikkinchi qushlar bilan suhbat qurgan. Nima bo'libdi, qushlar inson tilida sayraganlar, balkim papa qush tilida chug'urlagandir. Bunisi ma'lum emas. Yelezar rohibning vafot etgan farzandi avliyo Avgustin bilan gaplashardi. Oramizda qolsin-u, oxirgisidan boshqa hamma voqealarning chindan ham bo'lib o'tganiga shubhalanaman. Aytaylik, o'sha olamdan

ko‘z yumgan bola chindan ham gaplashgan bo‘lsin, lekin uning tilining tagida yulduzlarning turli burjlar aksi tushirilgan oltin yupqa taxtacha bo‘lgan. Demak, ko‘zbo‘yamachilik bo‘lyapti bu yerda. Bularning hammasiga bemalol izoh bersa bo‘ladi. Ko‘rib turganingizdek, men xolisman. Haqiqatni yolg‘ondan ajrataman. Lekin, bechora savodsizlar, mana sizlarga ayrim noto‘g‘ri sig‘inishlaringizni tushuntirmoqchi va sizlarni ulardan xalos qilmoqchiman. Dioskorid xudo devona o‘tga yashiringan deb hisoblagan, Xrizipp qorag‘atda, Iosif – sholg‘omda, Gomer – sarimsoqpiyozda degan. Momo Havoni yo‘ldan urgan ilonda Kadmusnikiga o‘xshash insoniy qiyofa bo‘lgani noto‘g‘ri. Ularning barchalari yanglishganlar. Garsia de Gorto, Kadamosto va Trev arxiyepiskopi Jan Gyugo daraxtni arralash filni tutib olish uchun kifoya qiladi, degan gapni inkor qiladilar. Ularga qo‘shilishga moyilman. Odamlar, xato ta’limotlar Azroilning ishi. Zulmat hukmdorining ta’siriga tushib qolar ekanmiz, adashishlar yomg‘irdek yog‘ila boshlashiga ajablanmasa ham bo‘laveradi. Ey yaxshilar, shuni bilingki, Klavdiy Pulxr tovuqlar katakdan chiqishni xohlamaganlari uchun halok bo‘lmagan; Klavdiy Pulhrning vafotini avvaldan bilgan Azroil ularning don cho‘qishlariga monelik qilgan. Xuddi shuningdek, Velzevul imperator Vespasianga majruhlarni davolash va ko‘rlarga shifo ato etish qobiliyatini berib, maqtovga arzigulik ish qilgan, lekin bu yerda Velzevulning niyatlari jinoyatkorona bo‘lgan. Jentelmenlar, selder ildizi va ajina o‘tning momig‘idan foydalanadigan, asal va xo‘rozning qonini aralashtirib, ko‘zga surtadigan firibgarlarga ishonmanglar. Rost-

ni yolg'ondan ajratishni o'rganinglar. Kayhon burji Merkuriyning nikohidan paydo bo'lgani noto'g'ri, aslida bu yoritqich Mirrixdan bunyod bo'lgan. Odam Atoning kindigi bo'lmagan. Avliyo Georgiy ajdarhoni o'ldirayotganida qizi uning yonida bo'lmagan. Avliyo Ieronimning kabinetida hech qanday o'choq soati bo'lmagan: chunki, birinchidan, uning g'orida hech qanday kabinet bo'lmagan; ikkinchidan, u yerda o'choq ham bo'lmagan; uchinchidan, u zamonlarda hech qanday soatning o'zi bo'lmagan. Tekshirib ko'ring, hammasini tekshiring. Mening aziz tinglovchilarim, agar sizlarga, valeriana o'tini hidlaydigan odamning miyasiga kaltakesak kirib oladi, harom o'lgan buqa chirib asalarining uyasiga aylanadi, ot esa chiriyotib qovoq arilar iniga aylanadi, murda tirik odamdan vaznda og'irroq keladi, zumrad toshi echkining sutiga solinsa, erib ketadi, agar ipak qurti, pashsha va o'rgimchakni bir daraxtga yopishib olganini ko'rsalar ochlik, urush va o'lat tarqaladi, moxovni davolash uchun kiyikning boshi ichidan olingan qurtdan foydalanish kerak desalar, birortasiga ham ishonmang. Bularning hammasi irim–sirimlardir. Mana sizlarga asl haqiqatlar: tyulenning mo'ynasi chaqmoqdan asraydi; qurbaqa loy yeydi, shuning uchun uning boshida tosh shakllanadi; iyerixon atirguli yangi yil kechasi ochiladi; ilonlar qayinning soyasini yoqtirmaydilar; filning oyoq boldirlari yo'q, shuning uchun u daraxtga suyanib uxlashga majbur; agar qurbaqa tovuq tuxumini tug'sa, undan chayon chiqadi, u esa kaltakesakni dunyoga keltiradi; agar ko'zi ojiz kimsa bir qo'lini mehrobning chap tomoniga qo'ysa, ik-

kinchisi bilan ko'zlarini berkitsa, u shifo topadi; bokira bo'lish ona bo'lishni istisno qilmaydi. Ey yaxshi odamlar, ushbu ochiq-oydin haqiqatlarni o'zingizga singdiring. U yog'iga xudoga har biringiz o'zingizcha ishonishingiz mumkin – kimdir tashnaning apelsinga e'tiqodiga o'xshash, kimdir eshakning qamchiga munosabatidek e'tiqod qo'yishingiz mumkin. Xo'sh, ana endi sizlarni truppamiz bilan tanishtirsam.

Shu lahzada shamolning anchayin kuchli nafasi boshqa inshootlardan bir chekkada turgan mehmona derazalari romlari va zulflarini falakdan keladigan momaqaldiroq tovushi misol bir titratib o'tdi. Notiq bir daqiqacha jim qolib, keyin davom ettirdi:

– Nafasni rostlab olish. Nima ham derdim, e'tirozim yo'q. Akvilon gapira qolsin. Jahlim chiqayotgani yo'q, jentelmenlar. Har qanday darbadar kabi shamol ham gapirishni yaxshi ko'radi. Osmonda gaplashishga hech kimni topa olmaydi. Mana ko'nglini bo'shatib oldi. Shunday qilib, davom ettiraman. Bizlar to'rttamiz. Dastlab asosiy ijrochi, mening do'stim lupo principium – ya'ni bo'ri. Unga bir nazar soling. U – olim, jiddiy, o'ychan. Ko'rib turganingizdek, taqdir uni avvaliga fan doktori qilmoqchi bo'lgan-u, ammo buning uchun ozgina qovoq bosh bo'lish kerak, u esa aqlli. Shuni ham aytib o'tamizki, u bid'atdan yiroq va umuman oqsuyak emas. Xonasi kelib qolsa, itlar bilan ham do'stlashib ketaveradi, ammo tanlaydigan dugonasi bo'ri bo'lishiga arziydi. Agar undan avlodlar dunyoga kelgan bo'lsa, onalarining akillashlariyu, otalarining uvillashlariga o'xshash chiroyli ovoz chiqarayotgan bo'lsalar ajab emas. Illo, bo'rilar

uvillaydilar. Insonlar bilan yashaganidan keyin uvillaydida. Lekin u tamaddunimizga rahmi kelganidan akillab ham qo'yadi. Bunday ko'ngli bo'shlik – oliyjanoblik belgisidir. Gomo – mukammalllashgan it. Itni hurmat qilish kerak. It – o'zi g'alati jonivor! – tilidan terlaydi va dumi bilan xursand bo'ladi. Jentelmenlar, Gomo yoli yo'q meksika bo'risi, mashhur xoloitzenisski dan aqlda qolishmaydi, ammo rahmdillikda undan o'tadi. Buning ustiga u itoatkor. U odamlarga foydasi tegayotganini anglaydigan bir bo'ri sifatida kamtar. Uning ko'ngli bo'sh, har doim yordam berishga tayyor, ammo buni pinhona qiladi. O'ng old oyog'i, chap old oyog'i qilayotgan ishni bilmaydi. Uning fazilatlari ana shular. Ikkinchi sherigim to'g'risida faqat bir narsani aytishim mumkin: u dahshatning o'zginasi. Ko'rib, faqat hayratlanishingiz mumkin. Bir paytlar uni qaroqchilar okean sohiliga tashlab ketganlar. Bu esa – ojiza. Dunyoda ko'zi ko'rmaydiganlar kammi? Yo'q, hammamiz ko'rmiz, o'zimizcha albatta. Xasis odam ko'r: u oltinni ko'radi, lekin boylikni ko'rmaydi. Isrofgar ko'r: u avvalni ko'radi, oxirni ko'rmaydi. Tannoz xonim ko'r: u o'z ajinlarini ko'rmaydi. Olim ko'r: u bilimi sayozligini ko'rmaydi. Halol odam ham ko'r, chunki u firibgarni payqamaydi, firibgar ham ko'r, negaki u xudoni bilmaydi. Aytmoqchi, tangri ham ko'r, dunyo yaralayotganida bu ishga shayton aralashib qolganini ko'rmay qolgan. Aytmoqchi, men ham ko'rman, sizlar bilan so'zlasha turib kar ekaningizni sezmayapman. Mana bu bizning ko'zi ojiz hamrohimiz, sirli e'tiqod ma'budasi. Unga Vestaning shamdonini ishonsa bo'ladi. Uning fe'l atvorida sir-

TOSHKENT SHAHAR TASHKILOTLARARO
№ 2026/N 8-87
AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

lilik va, ayni paytda, qo'zichoq terisi kabi mayinlik bor. U qirol qizi bo'lgan, deb o'ylayman, lekin bunga unchalar ishonmayman. Dono odamning fazilati hamma narsaga ishonavermaslikdir. Menga kelsak, men o'rgataman va davolayman. Tafakkur qilaman va muolaja bilan shug'ullanaman. Chirurgus sum (jarrohman). Terlama, o'lat va boshqa dardlardan davolayman. Barcha shamollashlar va dardlar kasallikni yuzaga chiqaruvchi bog'ichlardir, agar ular to'g'ri davolanilsa, boshqa dardlardan ham forig' bo'lish mumkin bo'ladi. Ammo har qanday holatda ham ko'p ildizli dard bilan, ya'ni ko'z yara bilan og'rimaslikni maslahat beraman. U halokatga olib boradi, boshqa yo'l yo'q. Qarshimizda to'pori va qo'pol odam turibdi, deb ham o'ylamang. Men notiqlik va she'riyatni chuqur hurmat qilaman va ushbu kamolot minoralariga juda yaqin ammo bokira munosabatdaman. Nutqimni nasihat bilan yakunlamoqchiman: saxovatpesha janoblar va xonimlar, qalbingizda, uning eng yorug' yerida oliyjanoblik, kamtarlik, halollik, adolatparvarlik va muhabbat atalmish go'zal gullarni undiring. O'shanda har birimiz bu yerda, bu dunyoda derazamizni kichkina tuvakchadagi gul bilan bezay olamiz. Taqsirlar va janoblar, so'zim nihoyasiga yetdi. Hozir tomoshani boshlaymiz.

Ushbu nutqni bosh oyoq ko'chada turib tinglagan dengizchi kiyimidagi odam qovoqxonaning pastak xonaqosiga kirdi, chorpoyalar orasidan o'tib, so'ragan haqlarini berdi va odamlar bilan to'la hovliga chiqdi; hovlining ichkarisida u bir devori tushirib qo'yilgan aravani ko'rdi: sahnada ayiq terisini kiyib olgan qa-

riya, dahshat ifodasi qoplagan yuzli yosh yigit, ko'zi ko'r qiz va bo'ri bor edi.

– Jin ursin, – xitob qildi dengizchi, – ajoyib artistlar!



YO'LOVCHI YANA PAYDO BO'LDI

Kitobxon, albatta, yaqinda Londonga kelgan "Yashil quti"ni tanigan bo'lsa kerak. Furgon Sautvorkda to'xtagandi, Ursusni qishda ham yopilmaydigan yarmarka joylashgan yashil o'tloq o'ziga jalb qilgandi.

Ursus avliyo Pavelning gumbazini ko'rishdan xursand edi. Qolaversa Londonda yaxshi narsalar juda ko'p. Aytish kerakki, avliyo Pavelga atab ehrom qurish uchun ma'lum darajada yurak kerak. Ehromlarning haqiqiy egasi bu avliyo Pyotr. O'ta chuqur mushohadalari bilan avliyo Pavel shubhali ko'rinib kelgan, cherkov masalalarida esa, mushohada shakkoklikka olib boradi. Avliyo Pavelni avliyo darajasiga ko'tarilishiga sabab, u falakka oson yo'l topa bilgan.

Ehrom bu ramz. Avliyo Pyotr ehromi – Rimning, masixiylik poytaxtining ramzi bo'lganidek, Avliyo Pavel ehromi – Londonning, shakkoklik shahrining ramzidir.

Dunyoqarashi olamdagi hamma narsani qoplay oladigan darajada keng Ursus ushbu nozik masala-

larni osonlik bilan tushunar, Londonga intilishi esa, ehtimol uning avliyo Pavelga bo'lgan alohida hurmati bilan izohlanardi. Hovlisi "Yashil quti"ga mos, tap-tayyor tomoshaxona bo'lgan "Tedkaster" mehmonxonasi Ursusga ma'qul tushdi. To'rt tomoni teng to'rtburchak hovlining uch tomoni odamlar yashaydigan uylar bilan o'ralgandi, to'rtinchi, mehmonxona binosaning ro'parasida esa, yaxlit devor qad ko'targandi. Keng, asosiy darvozadan olib kirilgan "Yashil quti"ni o'sha devorga jipslab o'rnashtirdilar. Ustunlarga o'rnatilgan uzun yog'och yo'lak ikkinchi qavatdagi mijozlarga mo'ljallangan edi; u ichki peshtoqning uch devori bo'ylab cho'zilgan, ikki joyda, to'g'ri burchak shaklida burilib, yana davom etgandi. Birinchi qavatdagi derazalar benuar lojalari, tosh yotqizilgan hovli – parter, yo'lak – beletaj vazifasini bajara olardi. Devorga suyab qo'yilgan "Yashil quti" tomosha zali tomon o'girilgandi. Bularning hammasi uni birinchi marta "Otello", "Qirol Lir" va "Bo'ron" o'ynalgan "Globus" teatriga o'xshatib qo'ygandi.

"Yashil quti"ning orqasidagi burchakda otxona joylashgandi.

Ursus hamma masalalarni qovoqxona egasi Nikls amaki bilan kelishib oldi; qonunni o'ta hurmat qiladigan chol bo'rini ichkariga kiritish uchun mo'maygina haq talab qildi. "Yashil quti"dan ko'chirib olingan "Guinplen – kulayotgan odam" e'lonini mehmona yorlig'ining yoniga osib qo'ydilar. O'quvchiga ma'lum bo'lganidek, qovoqxona ichidan to'g'ri hovliga olib chiqadigan eshik bor edi. O'sha eshikning yoniga tagi yo'q bochka qo'yib, chipta sotadigan joy hozirlandi; chiptalarni so-

tish vazifasini Fibi va Vinos navbat bilan ado etadigan bo'ldilar. Hammasi, bizning kunlarda qanday bo'lsa, taxminan shunday tashkil qilindi. Har bir tomoshabindan haq undiriladigan bo'lindi. "Kulayotgan odam" yorlig'i tagiga, oq rangga bo'yalgan taxtachani bir juft mix bilan qoqib qo'ydilar, unga ko'mir vositasida bosh harflar bilan Ursusning mashhur pyesasi nomini yozib qo'ydilar: "Yengilgan zulmat".

Yo'lak ayvonning markaziy qismida, "Yashil quti"-ning qarama qarshisida yog'och to'siqlar vositasida "Oqsuyaklar bo'lmasi"ni yasadilar. Unga oynavand eshik orqali kirish mumkin edi.

Bu yerga, ikki qator bo'lib, o'nta odam joylashishi mumkin edi.

– Biz axir Londondamiz, – dedi Ursus. – Aslzodalar ham kelib qolishlariga tayyor turishimiz kerak.

Uning talabi bilan "bo'lma"ga mehmonxonada topilishi mumkin bo'lgan eng yaxshi kursilar qo'yildi, o'rtaga esa, kattaroq amaldorning rafiqasi kelib qolgudek bo'lsa, degan o'yda, zar ipak bilan gullar tushirilgan, utrext duxobasi bilan qoplangan katta kreslo qo'ydilar.

Tomoshalar boshlandi.

Odam yog'ildi.

Ammo bo'lma bo'sh qolaverdi.

Shuni hisoblamaganda bunday yutuqni tomosha ko'rsatadiganlarda hech kim eslay olmasdi. Butun Sautvork to'p-to'p bo'lib "Kulayotgan odam"ni ko'rgani kela boshladi.

Guinplen Tarinzofilddagi masxarabozlar va qiziqchilar orasida haqiqiy to's–to'polon chiqishiga sabab

bo'ldi. Go'yo kabutarlar to'la qafasning ichiga burgut uchib kirib, ularning don-dunini yeb qo'ygandek edi. Guinplen ularning tomoshabinlarini o'z tomoniga og'dirib oldi.

Qilich yutadiganlar va masxarabozlardan tashqari yarmarka maydonida haqiqiy tomoshalar ham bo'lib turardi. Bu yerda chavandoz ayollari, dorbozlari bo'lgan sirk boriydi, u yerda ertalabdan tungacha turli–tuman musiqa asboblarining: barabanlar, sitralar, skripkalar, litavrlar, qo'ng'iroqchalar, hushtaklar, childirmalar, nemis surnaylari, ingliz karnaylari, naylar, surnay va qo'shnaylarning ovozlari kelib turardi.

Katta dumaloq chodir tagida akrobatlar tomosha ko'rsatishardi, ular bilan zamonamizning mashhur pireneyalik tezyurarlari, uchli cho'qqi Pyerfitdan Limason tekisligiga tushib borsalarda, bu esa, deyarli yiqilish edi, Dulma, Bordenav va Maylonga ham raqobat qila olmasdilar. Oralarida tomosha ko'rsatadigan yo'lbars va uning sersoqol egasi ham bor edi; o'rgatuvchi yo'lbarsni qamchilagan kezida u qamchinni tishlari bilan yulib olishga va dastasini chaynab tashlashga harakat qilardi. Ammo Guinplen ushbu qo'rqinchli tishli va tirnoqli, irillovchi artistni ham dog'da qoldirdi.

Qiziqish, qarsaklar, chipta pullari, olomon – "Kulayotgan odam" bularning hammasini olib qo'ydi. Odamlar "Yashil quti"dan o'zga hech narsani tan olmay qo'ydilar.

– "Yengilgan zulmat" g'olib zulmat bo'lib chiqdi, – derdi Guinplenning muvaffaqiyatidan yarmini o'ziniki

hisoblayotgan yoki akterlar lahjasida "ko'rpani o'z ustiga tortayotgan" Ursus.

Guinplen favqulodda shuhrat qozongandi. Ammo bu muvaffaqiyat mahalliygina edi. Shuhrat suv to'siqdan o'tishga qiynaladi. Shekspirning nomi Angliyadan Fransiyaga yetib borguncha bir yuz o'ttiz yil kerak bo'ldi; suv bu devor, agar keyinchalik afsuslangan bo'lsa-da, Volter Shekspirga yordam bermaganida, Shekspir hozir ham ehtimol devorning narigi tomonida, Angliyada, oroldagi shuhrati to'lqinlarida suzib yurgan bo'larmidi.

Guinplenning shuhrati London ko'prigining narigi tomoniga o'tmadi. U katta shaharda shov–ko'tara oladigan darajaga yetib bormadi. Har holda dastlabki paytlarda shunday bo'ldi. Masxarabozning hamiyati uchun Sautvork ham yetarli edi.

– Hamyonimiz gunoh ish qilib qo'ygan qizga o'xshab ko'z o'ngimizda to'lishib boryapti, – derdi Ursus.

Tomosha "Ursus rursus" va "Yengilgan zulmat"dan iborat edi. Tanaffuslar paytida Ursus o'zining "engastrimit"lik qobiliyatlarini namoyish qilib, ko'zboylog'ichlik qilardi: u tomoshabinlar orasidan istagan odamning ovoziga, u qo'shiq aytadimi yoki qichqiradimi taqlid qilar va o'xshatishni boplab, barchani hayratga solardi, ba'zan esa u olomonning shovqinini takrorlar va shu darajada baland ovozda guvillardiki, ichiga yuzlab odamlarni joylab olgandek ko'rinardi. Ajoyib iqtidor!

Bundan tashqari, ko'rib o'tganimizdek, u notiqlikda Sitserondan qolishmay va'z o'qir, tabiblik ham qilar va hatto kasallarni tuzatib ham yuborardi.

Sautvork zabt etilgandi.

Sautvorkda "Yashil quti"ning qizg'in kutib olinishidan Ursus mamnun bo'ldi, lekin hayratlanmadi.

– Bular o'zi eskidan johil xalq, – dedi u.

Keyin:

– Ularning didiga kelsak, ularni na Berksda yashovchi akrobatlar, na Somerset aholisi belglar, na Yorkni barpo etgan parizilarga qiyoslab bo'lmaydi, – deb qo'yardi.

Har tomoshada parterga aylanadigan mehmonxona hovlisi faqirona kiyingan, lekin hayajon qamrab olgan odamlar bilan to'lardi. Bular qayiqchilar, yukchilar, kema duradgorlari, daryo kemalarining shkiperlari, yaqindagina qirg'oqqa tushgan va topgan pullarini ichkilik va ayollarga sarflaydigan dengizchilar edi. Tomoshabinlar orasida shuningdek aravakashlar, qovoqxonalarning doimiy mijozlari, intizomni buzib qo'yib qizil kamzullarining qora astarini tashqariga qilib kiyishga mahkum qilingan va shu sababli "qora gvardiyachilar" nomini olgan harbiylar ham bor edi. Ana shularning hammasi ko'chalardan teatrga oqib kelishar, teatrdan esa, qovoqxonalarga yo'nalishardi. Ichilgan qadahlar spektaklning muvaffaqiyatiga aslo zarar yetkazmasdilar.

Odatda "qora xalq" deb ataladigan ana shu odamlar orasida bittasi ajralib turmoqdaydi: bo'yi boshqalardan balandroq, yirikroq, kuchliroq, yelkalari kengroq; u boshqalardan kambag'alroqqa o'xshardi; ammo uning oddiy odamlar kiyadigan liboslari toza va yirtiq joylari yo'q edi. Zavq–shavqini jilovlamay qolib, u mushtlari yordamida o'ziga yo'l ochar, jinga-

lak sochlari to'zg'ib ketar, tishlarini g'ijirlatar, ba'zida bitta-yarimtasining ko'zini ko'kartirar, ammo jarohat olganga o'sha zahoti bir shisha sharob in'om qilardi.

Ushbu doimiy mijoz – ko'chada turib zavq bilan xitob qilgan o'sha o'tkinchi edi.

Ushbu san'at bilag'oni bir zumda "Kulayotgan odam"ning shaydosi bo'ldi, qoldi. U hamma tomoshaga kelavermas, lekin kelgan kezlari olomonning "yetakchi"siga aylanardi; qarsaklar olqishlarga aylanib ketar; muvaffaqiyatning gulduros to'lqinlari shipgacha deyish joiz bo'lmasa (shipning o'zi yo'q edi), oshib–toshib yotgan bulutlargacha yetib borardi (ushbu bulutlardan ba'zida Ursusning tom bilan himoya qilinmagan daho asari ustiga shafqatsiz yomg'ir quyulardi).

Pirovardida o'sha odamni Ursus tanib oladigan bo'ldi, Guinplen ham unga e'tibor beradigan bo'ldi.

Uning qiyofasida ular ishonchli do'st topgandek edilar.

Ursus va Guinplen u bilan tanishish, juda bo'lmasa uning kimligini bilish harakatiga tushdilar.

Oqshomlarning birida Ursus mehmonxona xo'jayini Nikls bilan to'qnash kelib qoldi va parda ortining ishini bajaruvchi oshxona eshigidan turib noma'lum odamga ishora qildi va:

– Anavi odamni taniysizmi? – deb so'radi.

– Bo'lmasam-chi.

– Kim u?

– Dengizchi.

– Uning ismi nima? – gapga aralashdi Guinplen.

– Tom-Jim-Jyek, – javob qildi mehmonxona egasi.

Keyin, qovoqxonasiga qaytish uchun "Yashil quti"-ning osma zinasidan pastga tushayotib, Nikls amaki juda chuqur ma'noga ega gap qotdi:

– Eh, uning lord emasligi chatoq-da. Undan ajoyib ablah chiqqan bo'lardi!

"Yashil quti"dagi truppa mehmonxona hovlisida to'xtagan bo'lsa-da, u hech nimada hayot tarzini o'zgartirmadi va avvalgidek boshqalardan alohida bo'lib qolaverdi. Xo'jayinga qotadigan bir–ikki og'iz so'zlarini hisobga olmasak, ular mehmonxonaning doimiy mijozlari bilan ham, vaqtincha istiqomat qiladiganlar bilan ham hech bir muloqot qilmasdilar va faqat o'zaro suhbatlashardilar.

Sautvorkka kelganlaridan beri tomoshadan so'ng, hamma, odamlar-u jonivorlar, kechki ovqatini yeb bo'lganidan keyin, Ursus va Deya o'z bo'lmalarida uyquga ketgach, soat o'n bir va o'n ikkining orasida "yashil o'tloqqa" toza havodan nafas olish uchun chiqishni odat qildi. Orzumand kayfiyat tungi yulduzlar ostidagi sayrlarga ishtiyoq uyg'otadi; yoshlik – orziqib kutishlar davri; shu sababli yoshlar tunlari hech bir maqsadsiz daydib yurishni shunchalar yaxshi ko'radilar. Ushbu tungi soatlarda qorong'ilikda chayqalayotgan gavdalari elas ko'rinayotgan bir nechta piyonistalardan boshqa hech kim qolmasdi; bo'shab qolgan qovoqxonalarning eshiklari yopilar, Tedkaster musofirxonasi pastdagi yemakxonasining chiroqlari o'char, faqat u yoki bu burchakda oxirgi mijozning kelganidan darak berib, so'nggi sham yog'dusi ko'rinib qolardai; zich yopilmagan darparda orasidan xira yorug'lik tushib turar va o'ychan, mamnun, xa-

yollarga botgan Guinplen qalbida ifodalab bo'lmas baxtiyorlik his qilgan ko'yi u yoqdan bu yoqqa ochib qo'yilgan eshikdan uzoqqa ketmay qadam tashlardi. U nimalar to'g'risida xayol surardi? Deya haqida, hamma narsa va hech nima haqida; u eng muqaddas narsa to'g'risida xayollarga cho'mardi. Guinplen, allaqanday ip uni Deyadan uzoqlashib ketishiga yo'l qo'ymayotgandek, hech qachon mehmonxonadan uzoqlashib ketmasdi. Uyning yonida sayr qilish uning uchun kifoya edi. Keyin u qaytib kelar, "Yashil quti"da istiqomat qiluvchilarning bari uxlab yotganini ko'rar va o'zi ham uyquga ketardi.

4

GADONING DUSHMANI GADODIR

Odamlar o'zgalarning muvaffaqiyatini ko'ra olmaydilar, ayniqsa bundan o'zlari aziyat chekkudek bo'lsalar. Yeyilayotganlar yeyotganlarga kamdan kam holatlarda toqat qiladilar. "Kulayotgan odam" uzil-kesil katta voqeaga aylandi. Atrofdagi masxarabozlarning fig'oni falakka chiqdi. Tomoshaning muvaffaqiyati olomonni o'z qa'riga yutib, chor atrofni huvillatib qo'yadigan bo'ronga o'xshaydi. Hammaning qarshisida turgan aravada to's-to'polon boshlandi. "Yashil quti"ga tushayotgan daromadning ko'payishi atrofdagi tomoshaxonalarda tushumning

kamayishiga sabab bo'ldi. Hozirgacha tomoshabinlar kelib turgan aravalar endi ularning e'tiboridan chetda qola boshladi. Buni qo'shma shisha idishlar ichida bittasida suyuqlik darajasi oshsa, ikkinchisida shuncha kamayishiga qiyoslash mumkin. Bunday suv ko'tarilishi va pasayishiga o'xshash holatlar barcha teatrlarning boshidan kechib turadi: bir joyda suvning toshishi ikkinchi yerda sayozlikka sabab bo'ladi. Qo'shni sahnalarda bor tomoshasini namoyon qilib, karnaylar chalib, odamlarni o'ziga chorlaydigan chumoli uyasi tomoshaxonasi "Kulayotgan odam" sabab butkul xonavayron bo'ldi; ammo tushkunlikka tushsada Guinplenga mahliyo edilar. Barcha masxarabozlar, qiziqchilar, ko'zboylog'ichlarning unga hasadlari kelayotgandi. Anavi hayvon basharaning omadi chopgan ekan-da! Masxaraboz onalar va dorboz xonimlar jajji farzandlariga nadomat bilan boqishar va Guinplenga ishora qilib:

– Basharang anavinikiga o'xshagan bo'lsa, qaniydi, – deyishardi.

Ayollarning ba'zilari, bu qadar chiroylik ekanliklaridan achchiqlanib, farzandlarini ura ham boshladilar. Ko'pgina onalar, agar buni uddalash qo'llaridan kelganida, jon deb o'g'illarining qiyofalarini Guinplennikiga o'xshatib qo'ygan bo'lardilar. Hech bir daromad keltirmaydigan farishta monand qiyofadan egasiga boylik keltiradigan shaytoniy bashar yaxshi-da!

Kunlarning birida bir ona sahnada kupidonning rolini ijro etayotgan farzandiga musht o'xtalib:

– Otangni kim ekanini bilganimdaydi, boplab adabini berib qo'ygan bo'lardim, – deb po'pisa qilgandi!

Guinplen oltin tuxum tug'uvchi tovuqqa aylangandi. Barcha tomosha aravadagilar: "O'ta hayratlanarli qiyofaya!" deyishni to'xtatishmasdi. Qiziqchilar tishlarini g'ijirlatib Guiplenga hayrat va adovat bilan qarashardi. G'azab baland kelsa, u hasadga aylanadi. Bunday paytlarda uning ovozi uvillashga aylanib ketadi.

"Yashil quti"ning qo'shnilari o'zaro til biriktirib "Mag'lub bo'lgan zulmat"ning muvaffaqiyatini yo'qqa chiqarmoqchi bo'ldilar: ular hushtak chalishga, xurillashga, uv tortishga tushdilar. Pirovardida Ursus Gortenziya misol ommaga insofga chaqiruvchi nutq bilan murojaat qilishga, Tom Jim Jek esa tartibni tiklash uchun yaxshilab mushtlashishga majbur bo'ldi. Tom Jim Jekning mushtlashishlari oqibatida Guinplen unga ko'proq e'tibor, Ursus ko'proq hurmat bilan masofadan turib qaray boshladilar. "Yashil quti" truppasining a'zolari hech kim bilan tanishishga intilmas va odamlardan nariroqda edilar. Tom Jim Jekka kelsak, u o'zi bosh bo'lib olgan olomondagilardan bir kalla balandroq ko'rinar va hech kim bilan do'st va yaqin emasligi ma'lum edi: to'polonchi va barcha janjallarning tashabbuskori, u goho paydo bo'lar, goho yo'q bo'lib qolar, hammaga oshna va hech kimga o'rtoq emasdi.

Ammo Guinplenning ashaddiy hasadgo'ylari Tom Jim Jekdan yegan bir necha shapaloq bilan tinchib qo'ya qolmadilar. Tomoshani hushtakbozlik bilan to'xtatib qo'ya olmagach, tarinzofild masxarabozlari shikoyat qildilar. Ular mahalliy hokimiyatga murojaat qildilar. Bu – odatiy usul. Kimningdir yutug'idan

tomog'imizga narsa tiqilgudek bo'lsa, biz avval o'sha odamga xaloyiqni qarshi qo'ymoqchi bo'lamiz, undan keyin politsiyani yordamga chaqiramiz.

Masxarabozlarga ruhoniylar qo'shildilar: "Kulayotgan odam" da'vatchilarga zarar keltirayotgandi. Tomosha maydonlarigina emas, cherkovlar ham bo'shab qolgandi. Sautvorkliklar boradigan beshta cherkov qavmlaridan mahrum bo'lgandilar. Odamlar Guinplenni ko'rish uchun ibodatning yarmida qochib qolayotgandilar. "Yengilgan zulmat", "Yashil quti", "Kulayotgan odam" – bu majusiy tomoshalar cherkovlarda yangrayotgan chiroyli nutqlardan baland kelgandilar. Biyobonda oh urayotgan ovoz, vox damantis in deserto, bunday hollarda norozi bo'lib hokimiyatga murojaat qiladi. Besh qavmning yetakchilari London yepiskopiga shikoyat bilan murojaat qildilar, yepiskop bo'lsa hazrati oliyalariga shipshidi.

Raqib masxarabozlar o'z shikoyatlariga diniy mazmun berdilar. Ular e'tiqodga putur yetkazilmoqda, deb da'vo qildilar. Guinplenni jodugarlikda, Ursusni kufrda ayblab chiqdilar.

Ruhoniylar esa, aksincha – ular jamoa tartibi masalasini ilgari surdilar. Cherkovga tegishli masalalarni bir chekkaga surib qo'yib, ular parlament hujjatlariga amal qilinmayapti, dedilar. Bu borib turgan ayyorlik edi. Negaki voqealar bundan olti oy avval, 1704-yilning 28-oktyabrida vafot etgan Lokk zamonida, Bolingbrok Volterga yuqtirgan sovuqqonlik dardi insonlar ongiga ta'sir qila boshlagan zamonlarda bo'lib o'tayotgandi. Oqibatda, Loyola o'z paytida

papizmni tiklagani kabi, Uesli yana Injilga murojaat qilishga majbur bo'lgandi.

Shunday qilib, "Yashil quti" ikki o't orasida qolgandi: masxarabozlar besh muqaddas bitik nomidan hujum qilar, ruhoniylar bo'lsa – politsiya qonunlarini himoya qilayotgandilar. Bir tomondan – samo, ikkinchi tomondan – yo'l qoidalari, aytmoqchi ruhoniylar ko'cha qoidalarini himoya qilmoqchi edilar, ko'z boylog'ichlar bo'lsa – samoni. Avliyo otalar "Yashil quti" yo'llarda harakat erkin bo'lishiga to'siq bo'lyapti, deyishar, masxarabozlar ularni osiylikda ayblamoqdaydilar.

Bunga biror bahona bormidi? "Yashil quti" ayblovlarga asos yaratib berganmidi? Ha, bergandi? Uning aybi nimaydi? Mana nimaydi: truppada bo'ri boriydi. Bo'rining Angliyada yashash huquqi yo'q. Itniki bor, bo'riniki yo'q. Angliya akillaydigan itga etiroz bildirmaydi, lekin uvillayotgan bo'rini tan olmaydi: molxona va o'rmonning chegarasi shu yerdan o'tadi. Sautvorkdagi beshta cherkovning ruhoniylari va vikariylari o'z shikoyatlarida bo'rini qonundan tashqari, deb hukm chiqargan ko'plab qirollik va parlament hujjatlaridan iqtibos keltirayotgandilar. Murojaatlari nihoyasida ular Guinplenni qamoqxonaga tashlashni, bo'rini esa, qafasga qamashni, yo bo'lmasa, har ikkalasini Angliyadan chiqarib yuborishni talab qilayotgandilar. Ularga ko'ra, jamoa tartibi manfaatlari, o'tkinchilarni xavf–xatardan himoya qilish zaruriyati shuni taqozo qilayotgandi va hkz. Bundan tashqari ular olimlarning fikrlariga suyanayotgandilar. Ular Genrix VIII zamonidan mavjud, davlat tashkiloti kabi o'z muhriga ega

sakson shifokor hamjamiyatini ro'kach qilmoqdaydilar; bu tashkilot betoblarni sudlanuvchilar darajasiga tushirib qo'ya olar, kimki qarorlarini yoki tavsiyalarini buzsa, ularni qamash huquqiga egaydi; fuqarolarning salomatligini himoya qilishga qaratilgan boshqa foydali kashfiyotlari orasida ushbu hamjamiyat quyidagi favqulodda muhim ilmiy xulosani chiqargandi: "Agar bo'ri birinchi bo'lib odamni ko'rib qolsa, o'sha odam bir umrga xirillab qoladi, qolaversa, bo'ri uni tishlab olishi ham mumkin".

Shunday qilib Gomoni ta'qib qilishga bahona tayyor edi.

Mehmonxona egasi ushbu fitnalarning hammasidan Ursusni xabardor qildi. Politsiyaning changali va adliyaning ayblovidan teng qo'rqadigan Ursus bezovta bo'la boshladi. Sud xizmatchilaridan hadiksirash uchun biror nimada gunohkor bo'lish shart emas, qo'rquvning o'zi kifoya qiladi. Ursus sheriflar, politsiyachilar, hakamlar yoki qo'riqchilarga ro'baro' bo'lishni aslo istamasdi. Quyon tozi itlarni uchratishni qanday istasa, Ursus sud hokimiyati vakillarini uchratishni shunchalar xohlar edi.

U xatto Londonga kelganiga afsuslana boshladi.

– Yaxshilikdan yaxshilik izlamaydilar, – deya to'ng'illardi u o'ziga o'zi. – Ushbu maqolga e'tibor bermay, adashgan ekanman. Yengil–yelpi gaplar naq haqiqat ekani ayon bo'lyapti.

O'zaro birlashgan shuncha kuch, din himoyasiga jazm qilgan masxarabozlar, tibbiyot manfaatlarini ko'zlayotgan avliyo otalarga qarshi jodugarlikda ayblanayotgan Guinplen va suvdan hurkadigan

Gomo hamda "Yashil quti"ning yagona quroli bor edi – bu Angliyada katta kuch bo'lgan mahalliy hokimiyat vakillarining tepsa tebranmasligi edi. Ana shu layoqatsizlikdan ingliz ozodligi yaralgan. Dengiz o'zini qanday tutsa, Angliyada erkinlik o'zini shunday tutadi. U dengizdagi suvning ko'tarilishiga o'xshaydi. U asta-sekin tobora balandroq ko'tarila borib, qo'rqinchli qonunchilikni yutib yuboradi. Ammo shafqatsiz qonunlar hozir ham ozodlikning jimirlayotgan to'lqinlari orasidan mo'ralab turadilar, – ana shunaqa Angliya.

Masxarabozlar, ruhoniylar, yepiskoplar, jamoachilar palatasi, lordlar palatasi, hazrati oliyalari, London, butun Angliya "Kulayotgan odam", "Yengilgan zulmat" va Gomoga qarshi chiqqan taqdirlarida ham hamonki orqalarida Sautvork turarkan "Yashil quti"dagilar xotirjam qolishlari mumkin edi. "Yashil quti" shaharchadagi hamma yoqtiradigan ko'ngilochar joy edi va mahalliy hokimiyat rahnamolari, ko'rinishdan unga befarq edilar. Angliyada hokimiyatdagilarning befarqligi homiylikka tenglashtiriladi. Binobarin tarkibiga Sautvork kiradigan Serrey grafligi sherifi pinagini buzmayotgan ekan, Ursus erkin nafas olishi, Gomo bo'lsa tinch uxlashi mumkin edi.

"Yashil quti"dagilar uyg'otgan hasad maqsadiga yetolmagach, u aksincha ularning muvaffaqiyatiga xizmat qila boshladi. "Yashil quti" hayot tarzini o'zgartirmadi. Aksincha, fitna-yu – yozdi-yozdilar to'g'risida xalq orasida gap tarqab, tomosha yanada ko'proq odamni jalb qila boshladi. Xaloyiq ig'vo va sotqinlikdan darrov xabar topadi va jabrlanuvchining

tarafdoriga aylanadi. Ta'qib etilish – hamdardlik chaqirish demakdir. Olomon hokimiyatning jazolovchi qo'li ko'tarilgan hamma narsani o'z himoyasiga oladi. Fitna qurboni taqiqlangan meva misol shirin ko'rinib ketadi. Qolaversa, boshliqlarga yoqmaydigan qarsaklar ham olomonga xush kelaveradi. Oqshomni tomosha ko'rib o'tkazish, va ta'qib ostidagilarga hamdard bo'lib, ta'qib qiluvchilarga norozilik bildirish kimga yoqmaydi deysiz? Xo'rlanayotganlarga hamdardsan va, ayni paytda, ko'ngil ochyapsan. Shuni ham aytish kerakki, tomosha aravalarining egalari, til biriktirib, "Kulayotgan odam"ni hushtaklar-u uvillashlarga burkashda davom etmoqdaydilar. Uning muvaffaqiyatiga sabab bo'lguvchi bundan ortiqroq narsa yo'q edi. Raqiblar ko'taradigan shovqin zafarni yanada bo'rttiradi va ahamiyatini orttiradi. Do'stingiz sizni maqtashdan charchashi mumkin, ammo raqibingiz haqorat qilishdan hormaydi. Xushtakbozligu uv tortishlar zarar keltirolmaydilar. Buni dushmanlar tushunmaydi. Ular haqoratdan o'zlarini tiya olmaydilar va qarshi tomonga bu foyda keltiradi xolos. Ular sukut saqlay olmaydilar va bu xatti-harakatlari bilan xaloyiqdagi qiziqishning so'nib qolishiga yo'l qo'ymaydilar. "Yengilgan zulmat"ni ko'rish uchun odam yog'ila ketdi.

Ursus yuqoriga yetkazilgan shikoyatlar va fitnalar to'g'risida Nikls amakidan eshitgan hamma narsani ichida saqladi va akterlarga naqadar zarur bo'lgan xotirjamlikdan Guinplenni mahrum qilmaslik uchun, unga bu to'g'rida og'iz ochmadi. Balo kelgudek bo'lsa, u to'g'risida eshitishga doimo ulgurasan.



ASO EGASI

Shunday bo'lsada, kunlarning birida Ursus ehtiyot shart ehtiyotkorlikdan voz kechishga va Guinplenni bezovta qilishga botindi. To'g'risi, bu safar u yarmarkadagi masxarabozlar va avliyo otalarning fitnalaridan muhimroq mavzu ustida so'z boryapti deb o'yladi. Kunlarning birida tushumni hisoblay turib yerga tushib ketgan farting tangasini tomosha qilarkan, Guinplen uni diqqat bilan ko'zdan kechirgandi; qashshoqlikning ramzi misol bo'lgan ushbu chaqaning yuz qismida taxt timsoli bo'lgan qirolicha Annaning qiyofasini ko'rib, u mehmonxona egasiga bu to'g'rida anchagina keskin fikr bildirgandi. Niklsning qulog'iga quyulgan ushbu so'zlar og'izdan og'izga o'tib, nihoyat Fibi va Vinos orqali Ursusgacha yetib keldilar. Ursusni sovuq ter qoplab oldi. Shakkoklik! Hazrati oliyalari sha'niga haqorat! Ursus Guinplenni qattiq urushib tashladi.

– Manfur og'zingni yum! Bekorchilik – dunyo zo'rlarining huquqi; jim yurish – mayda odamlarning burchi. Qashshoqning birgina do'sti bor – sukut saqlash. U faqat "xo'p bo'ladi"ni bilishi kerak. Hamma narsani qabul qilishi, hammasiga ko'nishi kerak – mana uning yagona huquqi. Hakamga "xo'p" deyish, qirolga "xo'p" deyish. Aslzodalar, agar istab qolsa-

lar, bizni yaxshilab savalashlari mumkin, bu ularning imtiyozi, meni o'zimni ko'p marta do'pposlaganlar va suyaklarimizni sindirar ekanlar, aslzodaliklariga zig'ircha ham putur yetmaydi. Burgut – suyak sindiruvchining ramzi. Hokimiyat asosi oldida tiz cho'kaylik – u asolarning asosi. Ehtirom ehtiyotkorlikdan boshqa narsa emas, unsiz itoat – o'zni himoya qilishdir. Qirolni haqorat qilgan kimsa, sherning yolini kesib olishga jur'at qilgan qiz kabi, o'zini xatarga qo'yadi. Bozorda bizga nim chorak tuzlangan baliq beriladigan liarga teng farting, unga zarb etilgan oliy zot to'g'risida bemazagarchiliklar gapirganingni menga yetkazishdi. Ehtiyot bo'l. O'ylab ish qil. Dunyoda jazo degan narsalar borligini unutma. Qonunni hurmat qil. Sen uch yoshli daraxtni kesgan odamni xotirjam dor ostiga olib boradigan, besabab ibodat qilguvchining oyoqlarini kundaga soladigan mamlakatdasan. Piyonistani tagi olib tashlangan, ustida bosh, yon tomonlarida ikki qo'l uchun tirqishlari bo'lgan bochkaga soladilar va u hech qachon yota olmaydi, faqat yura oladi. Vestminister abbatligi xonaqosida biror kimsaga qo'l ko'targan shaxs umrbod qamoq jazosiga mahkum bo'lib, mol–mulki musodara bo'ladi. Shu ishni qirol saroyida qilgan kimsaning o'ng qo'lini kesadilar. Birortasini burniga yaxshilab chertsangu, u qonasa, qarabsanki, qo'ling yo'q. Jodugarligi ayon bo'lib qolgan odamni yepiskop sudining qarori bilan gulxanda kuydiradilar. Arzimagan gunohi uchun Ketbert Simpsonni chor bo'lak qildilar. Bor yo'g'i uch yil ilgari, 1702-yilda bir kun avval parlamentda nutq so'zlagan jamoalar palatasi a'zolarining

ismlarini nashr etishga jazm etgani uchun Daniel Defo atalmish zolimni uyat ustuniga bog'lab qo'ygandilar. Hazrati oliyalariga xiyonat qilgan shaxsning ko'kragini kesib, yuragini sug'urib oladilar va u bilan uning yuziga uradilar. Huquqning va adolatning ana shu asosiy tushunchalarini miyangga quyib ol. Hech qachon ortiqcha so'z dema va ozgina xatar tug'ilgudek bo'lsa, parvoz qilishga tayyor tur – bor botirligim ana shu; senga ham shunday qilishni maslahat beraman. Qushdek botir, baliqdek so'zamol bo'l. Esingda bo'lsin, Angliya – qonunlarining o'ta yumshoqligi bilan yaxshi mamlakat.

Ushbu nasihatgo'ylikdan keyin ham Ursus yana uzoq vaqt bezovta bo'ldi, Guinplen bo'lsa, xotirjam qolaverdi: yoshlar tajribasiz bo'ladilar, shuning uchun qo'rqmaydilar. Guinplenning bezovta bo'lmaslik uchun barcha asoslari bor edi, negaki bir necha hafta hech bir hayajonlanarli voqealar bo'lmadi va uning qirolicha to'g'risidagi so'zlari oqibatsiz qoldilar.

Ursus, ko'rganimizdek, beg'am bo'lolmasdi va ohu misol har doim hushyor edi.

Guinplenga berilgan tarbiyadan bir necha kun o'tib, Ursus derazadan maydonga nazar soldi va rangi oqarib ketdi.

– Guinplen!

– Nima?

– Qara.

– Qayoqqa?

– Maydonga.

– Xo'sh, nima bo'libdi?

– Anavi o'tkinchini ko'ryapsanmi?

– Qora kiyingan odamnimi?
– Ha.
– Qo'lida cho'qmori bora?
– Ha.
– Xo'p, nima bo'libdi?
– Bilib qo'y, Guinplen, bu odam – wapentake.
– Kim u – wapentake?
– U aso egasi, daha mirshab boshisi.
– Kim u daha mirshab boshisi?
– Ya'ni praepositus hundredi.
– Kim u praepositus hundredi?
– Juda qo'rqinchli mulozim, yuzboshi.
– Qo'lidagi narsa nima?
– Bu – iron-weapon.
– Nima u iron-weapon?
– Temir aso.
– Temir asoni u nima qiladi?
– Avvalo u bilan qasam ichadi. Shu sababli uni aso sohibi, deb ataydilar.
– Keyinchi?
– Keyin u biror kimsaga teginadi.
– Nima bilan?
– Temir aso bilan.
– Aso egasi aso bilan teginadimi?
– Ha.
– Bu nimani bildiradi?
– Bu: men bilan yuring degani bo'ladi.
– Keyin u bilan ketish kerakmi?
– Ha.
– Qayoqqa?
– Qayerdan bilaman?

– Qayoqqaligini uning o'zi aytadimi?
– Yo'q.
– Undan so'rasa bo'lmaydimi?
– Yo'q.
– Nega endi?
– U hech nima demaydi, unga ham hech narsa demaydilar.
– Ammo...
– U temir asosini senga tegizadi, vassalom. Orqasidan yurishingga to'g'ri keladi.
– Xo'p, qayoqqa?
– Qayoqqa boshlasa.
– Qayoqqa axir?
– Qayoqqa xohlasa, Guinplen.
– Bormasam-chi?
– Dorga osadilar.

Ursus yana boshini derazadan chiqardi, chuqur nafas olib, dedi:

– Xudoga shukur, o'tib ketdi! Bizga emas ekan.

Ko'rinishdan Ursus Guinplen ehtiyotsizlik qilib aytib yuborgan so'zlaridan keyingi ig'volar va chaquvlardan keragidan ortiq xavotirlanayotgandi.

Bu so'zlarni eshitgan Nikls amakiga hokimiyat vakillarida "Yashil quti"da istiqomat qiluvchilarga nisbatan shubha uyg'otishdan hech bir naf yo'q edi. "Kulayotgan odam" unga ozmuncha daromad keltirmayotgandi. "Yengilgan zulmat"dan ikki tomonlama foyda kelayotgandi: "Yashil quti"da san'at tantana qilayotgan bo'lsa, qovoqxonada ko'proq ichkilik ichilayotgandi.



MUSHUKLAR SICHQONNI SO'ROQ QILADILAR

Ursus yana bir hiyla qo'rqinchli bezovtalikni boshidan o'tkazdi. Bu safar gap bevosita uning o'zi to'g'risida edi.U Bishopsgeytga uchta o'ta yoqimsiz shaxsdan iborat hay'at huzuriga borishga chaqiriq oldi. Bular tartibning rasmiy qo'riqchilari, fan doktorlari: birinchisi vestminster nazoratining vakili, ilohiyotshunoslik doktori; ikkinchisi Saksontalik hay'at vakili, tibbiyot doktori, uchinchisi Greshem hay'ati vakili, tarix va fuqarolik huquqi doktori edi. Ushbu in omni re scibili (inson bilishi mumkin bo'lgan barcha narsalar bo'yicha) uch mutaxassisga Londondagi bir yuz o'ttizta qavm, Middlseks grafligidagi yetmish uch qavm va Sautvorkdagi uch qavm hududining barchasida ommaviy gapiriladigan nutqlarning nazorati yuklatilgandi. Ushbu ilohiyot sudlari Angliyada hozir ham mavjudlar va aybdorlarni shafqatsiz jazolaydilar. 1868-yilning 23-dekabrida Arch sudi ruhoniy Makonochini oddiy chorpoya ustida sham yoqqani uchun ommaviy la'natlovga va sud xarajatlarini qoplashga mahkum etdi, lordlarning yashirin kengashi jazoni ma'qulladi. Ha, din bilan hazillashib bo'lmaydi.

Shunday qilib, kunlarning birida Ursus uch olim doktordan sud majlisiga kelish to'g'risida yozma cha-

qiriqnoma oldi. Chaqiriqnomani uning shaxsan o'ziga topshirganlaridan u bu ishni boshqalardan sir tuta oldi. Hech kimga so'z demasdan, xatti harakatlarini betga choparlikka yo'yishlaridan xavotirga tushgan holda u chaqiriqqa itoat qilib, yo'lga chiqdi. Ushbu boshqalarga jim yurishni maslahat berib kelgan insonga bu narsa shafqatsiz saboq edi. Garrule, sana te ipsum (Mahamadona, avval o'zingni davola).

Qonunlarning uch nazoratchi doktori Bishops-geytning birinchi qavatidagi xonaqoning to'rida qora rangli orom kursilarda o'tirardilar. Ularning bosh tomonlarida Minos, Eak va Radamantning byustlari, qarshilarida chorpoya, oyoqlarining tagiga kursichalar qo'yilgandi.

Serviqor va jiddiy nozirning hamrohligida xonaqoga kirgan va uchta hakamni ko'rgan Ursus ularni bosh tomonlariga byustlari qo'yilgan zulmat dunyosi hakamlarining nomlari bilan atadi.

Uch hakamning biri – Minos Ursusga o'tirish uchun kursi ko'rsatdi.

Ursus takalluf bilan chuqur, ya'ni yergacha ta'zim qildi va, ayiqning ko'ngliga yo'l asal, doktorning ko'ngliga yo'l lotin tili ekanini bilgani holda, qaddini rostlamay turib, o'tirganlarga hurmat bilan dedi:

– Tres faciunt capitulum (Uchlik hay'at demakdir).

Keyin bo'ynini eggan ko'yi (itoat ko'ngillarni yumshatadi) kursiga o'tirdi.

Olimlardan har birining oldida qog'oz taxlami bo'lib, ularni varaqlab, o'qib ko'rmoqdaydilar.

Tergovni Minos boshladi:

– Odamlar oldida so'zlab turasizmi?

– Ha, – javob qildi Ursus.

– Kim huquq berdi?

– Men – faylasufman.

– Bu sizga hali huquq bermaydi.

– Bundan tashqari men qiziqchiman, – dedi Ursus.

– Bu boshqa gap.

Ursus yengil nafas oldi, lekin sezdirmadi. Minos davom etdi:

– Qiziqchi sifatida gapirishingiz mumkin, lekin faylasuf sifatida jim yurishingiz kerak.

– Harakat qilaman, – dedi Ursus.

Keyin xayolidan o'tkazdi: "Gapirishim mumkin, lekin jim yurishim kerak. Qiyin masala".

Qalbi hamon qo'rquvda edi.

Ilohiyotshunoslik vakili davom ettirdi:

– Siz kufr fikrlarni aytmoqdasiz. Dinni haqorat qilyapsiz. Siz ko'rinib turgan haqiqatlarni inkor qilyapsiz. Kishini g'azabga soluvchi yanglish fikrlarni tarqatyapsiz. Masalan, bokiralik onalikni istisno qiladi, debsiz.

Ursus itoatkorlik bilan hakamga qaradi.

– Bunday deganim yo'q. Onalik bokiralikni istisno qiladi, dedim.

Minos o'ylab qoldi va:

– Haqiqatan ham bu aks ma'noni bildiradi, dedi.

Bu o'sha ma'noning o'zi bildirardi. Lekin birinchi zarba qaytarilgandi.

Ursusning javobi ma'nosini chaqib, Minos chuqur bema'ni o'yga toldi. Keyin o'rtaga jimlik cho'kdi.

Tarixchilarning rasmiy vakili, Ursus xayolan uni Radamant, deya atayotgandi, Minosning mag'lubiyatini xaspo'shalmoqchi bo'lib Ursusga murojaat qildi:

– Ayblanuvchi, shakkokliklaringiz va yanglishishlaringizning sanog'i yo'q. Siz Brut va Kassiy yo'l ustida qora tanlini uchratib qolganlari sababli Farsal jangi boy berilganini inkor qilibsiz

– Men, – deb sayradi Ursus, – buning sababi Sezarning iqtidorli sarkarda bo'lganida, degandim.Tarixchilar vakili to'g'ri mifologiyaga ko'chdi:

– Siz Akteonning gunohlarini oqlabsiz.

– Men kiyimsiz ayolni ko'rish erkak uchun haqorat emas, deb o'ylagandim, – dedi ehtiyotkorlik bilan Ursus.

– Va adashgansiz, – dedi jiddiylik bilan hakam.

Radamant yana tarixiy mavzuga qaytdi:

– Mitridat otliq qo'shini boshiga tushgan kulfatlar sababli siz ayrim giyohlar va o'simliklarning tan olingan xususiyatlarini shubha ostiga olibsiz. Securiduca giyohi sababli otlarning taqalari uzilib tushmaydi debsiz.

– Kechirasiz, – dedi Ursus, – men bor yo'g'i bunday xususiyat sferra-cavallo o'tiga tegishli degandim. Men hech bir o'simlikning xislatlarini inkor qilmayman.

Keyin shivirlab qo'ydi:

– Hech bir ayolning ham.

Ushbu so'zlar bilan Ursus, xavotirlikka qaramay, sarosimaga tushmayotganini o'ziga isbotlamoqchi bo'ldi. Borgan sari azoi badanini qamrab olayotgan qo'rquvni pisand qilmaslikka harakat qilayotgan faylasuf tushkunlikka tushib qolmadi.

– Men o'z fikrimda qolaman, – davom etdi Radamant. – Sizningcha Aethlopis giyohi qulflarni ochish xislatiga ega emasmish, shu sababli Karfagen darvo-

zalarini ochayotib, Ssipion Aethlopis o'tidan foydalanib, xatoga yo'l qo'yganmish.

– Men u Lunaria o'tidan foydalanganida, yaxshiroq bo'lardi, dedim xolos.

– Buni hali o'ylab ko'rish kerak, – vaysadi izzat nafsi og'ringan Radamant.

Shu bilan tarix vakilining uni o'chdi.

Ilohiyotshunos Minos o'ziga kelib, so'roqni davom ettirdi. Bu orada u qaydlar daftariga ko'z yugurtirib olishga ulgurgandi.

– Siz auripigment margumush birikmalariga kiradi va auripigment zaxar o'rnida ishlatilishi mumkin, debsiz. Injil buni inkor etadi.

– Injil inkor etadi, – dedi xo'rsinib Ursus, – lekin margumush tasdiqlaydi.

Ursus xayolan Eak deb ism qo'ygan va hozirgacha tibbiyotning rasmiy vakili sifatida so'z demay o'tirgan shaxs ko'zlarini yarim ochib, viqor bilan Ursusni qo'llagan bo'ldi.

– Yomon javob bo'lmadi, dedi o'sha shaxs.

Ursus bor qobiliyatini ishga solib, qulog'iga yetgudek irshayib, unga minnatdorchilik bildirdi. Minosning basharasi bujmayib, qo'rqinchli tusga kirdi.

– Davom etamiz, – dedi u. – Javob bering. Boychechak Kokatriks ilonlari ustidan hukm yuritishini bo'lmagan gap debsiz.

– Hazratim, – dedi yalinib Ursus, – men boychechakning shuhratining zarrachalik kamsitishni istamaganman va hatto uning inson boshiga o'xshat ketishini e'tirof etganman.

– Shunday ham bo'lsin, – deb jiddiy e'tiroz bildirdi Minos, – lekin siz Periy boshi lochinga o'xshab keta-

digan boychechakni ko'rgan, deb qo'shib qo'yibsiz. Buni isbot qila olasizmi?

– Qiynalibroq, – dedi Ursus.

Shu yerga kelganida u dovdiray boshlaganini sezdi.

Uning bu holatidan Minos foydalanib qolmoqchi bo'ldi:

– Aytibsizki, masixiylikni qabul qilgan yahudiydan badbo'y hid kelarmish.

Minos fosh qiluvchi qaydlar bitilgan daftariga nazar tashladi.

– Siz aql bovar qilmaydigan bema'ni gaplar tarqatyapsiz. Elian ertak to'qiydigan filni uchratgan, debsiz.

– Yo'q, hazratim. Men bor yo'g'i Oppian suv otining falsafiy mushohadalarini eshitgan, degandim.

– Zarang yog'ochidan o'yilgan laganda o'z o'zidan barcha ne'matlar muhayyo bo'lib qolmaydi, degansiz.

– Bunday xislatli laganni sizga faqat shayton sovg'a qilishi mumkin, deganman.

– Menga sovg'a qilingan?!

– Yo'q, hazratim, menga! Yo'q, hech kimga! Hammaga, demoqchiydim!

Shu joyga kelganida Ursus: "Nimalar deyayotganimni o'zim ham bilmayapman!" dedi xayolan. Ammo, qattiq hayajonlanishiga qaramay, u hech narsani sirtiga chiqarmadi. Kurashishda davom etdi.

– Bularning hammasi, – e'tiroz bildirdi Minos, – qisman shaytonga ishonchingizni taxmin qiladi.

Ursus pinagini buzmadi.

– Hazratim, men shaytonga ishonaman. Shaytonga ishonish – xudoga ishonishning teskari tomoni. Biri

ikkinchisining mavjudligini isbot qiladi. Kim ozginagina bo'lsada, shaytonga ishonmasa, u xudoga ham unchalar ishonmaydi. Kim quyoshga ishonsa, soyaga ham ishonishi kerak. Shayton parvardigorning tunidir. Tunning o'zi nima? Kunning dalilidir.

Ursus hakamlariga tortiq qilayotgan falsafa va ilohiyotshunoslikning aql bovar qilmaydigan qorishmasini yo'l yo'lakay to'qiyotgandi. Minos o'ylanib, sukutga ketdi.

Ursus yana yengil nafas oldi.

To'satdan unga hujum boshlandi. Tibbiyotning rasmiy vakili, hozirgina Ursusni viqor bilan himoya qilgan Eak kutilmaganda ittifoqchidan hujumchiga aylandi. Musht qilib tugilgan qo'lini yozuvlar bilan to'lgan sahifalarning kattagina uyumiga tiray turib, u Ursusni mahv etishga kirishdi:

– Billur muzning tabiiy zichlashuvi, olmos, esa billurning shunday zichlashuvi natijasi ekanligi isbotlangan; shu narsa aniqlanganki, muz ming yildan keyin billurga, billur ming yildan keyin olmosga aylanadi. Siz bularni inkor qilibsiz.

– Yo'q, – dedi sovuqqonlik bilan Ursus. – Men, ming yil ichida muz erib ketishi mumkin va ming yilni sanash oson ish emas, degandim xolos.

So'roq davom etardi; savollar va javoblar qilichning zarbiga o'xshab jaranglayotgandilar.

– O'simliklarning so'zlay olishlarini inkor qilibsiz.

– Hechamda. Ammo gapira olishlari uchun ular dor tagida o'sishlari kerak.

– Mandragoraning qichqirishini tan olasizmi?

– Yo'q, lekin u kuylaydi.

– Siz chap qo'lning nomsiz barmog'i yurakni dard-dan forig' qila olishini inkor qilgansiz.

– Men, chap tomonga aksirish tarbiyasizlik alomati, deganman xolos.

– Siz samandar to'g'risida dag'al va haqoratomuz fikrlar bildirgansiz.

– Hakamlar donosi, men, samandar hech qachon mavjud bo'lmaganiga qaramasdan, uning miyasi – mazali taom, lekin bosh og'rig'ini chaqiradi, deb Plu-tarx oshirib yuborgan deb aytgandim.

– Isyonkorning gaplari. Dolchinning cho'plarida o'ziga in yasaydigan kannamalkni, Parizatida zaharli suyuqliklarini pishiradigan tumshuqburunni, jannat qu-shi manukodiatni va uchtumshuq semendani adashib samandar, deb o'ylaganlar, lekin samandar bo'lgan.

– E'tirozim yo'q.

– Siz eshshaksiz.

– Shuning o'zi yetadi menga.

– Siz, maymunjon yurak siqilishini davolashini tan olgansiz, lekin buning sababi uning ildizidagi shish ekanligini inkor etgansiz.

– Men Yaxudo uning shoxiga o'zini osgani sabab davolovchi xususiyatlar paydo bo'lgan, deb tushun-tirgandim.

– Haqiqatga yaqin fikr, – dedi tibbiyot vakili Eak-ga igna sanchish navbati yetib kelganidan mamnun bo'lgan Minos.

Kibrga ozor berilsa, u g'azabga aylanadi. Eak qahr otiga mindi:

– Xayollaringiz daydi oyoqlaringiz misol qayoq-qa qarab ketayotganini bilmaydi. G'alati va shubhali

mavzularga qiziqasiz. Jodugarlikka yaqin narsalar bilan shug'ullanasiz. G'ayrioddiy hayvonlar bilan muloqot qilasiz. Qora xalqqa faqat o'zingizning xayolingizdagi, xislatlari mavhum narsalar haqida, masalan gemorous to'g'risida gapirasiz.

– Gemorous – Tremelliy ko'rgan qora ilon.

Javob g'azabnok Eakning unini o'chirdi.

Ursus davom etdi:

– Kastell tasvirlab ketgan sassiq qashqir yoki Afrika chiyabo'risi mavjudligi qanchalar haqiqat bo'lsa, gemorousning ham mavjudligi shunchalar to'g'ri.

Eak qiyin ahvoldan chiqib olish uchun navbatdagi zarbani berdi:

– Mana o'zingiz aytgan shaytoniy gaplar. Eshiting.

Eak, qaydlar daftariga bir qarab olib, o'qishga tushdi:

– "Ikki o'simlik, falagsig va aglofotis qorong'i tushishi bilan nur socha boshlaydilar. Kunduzi ular gul, tunlari – yulduzdirlar".

U Ursusga parishon nazar soldi.

– O'zingizni oqlash uchun nima deya olasiz?

Ursus javob berdi:

– Har bir o'simlik – chiroq. Uning ufori – yorug'lik.

Eak bir necha sahifaga ko'z yugurtirdi.

– Siz suv kalamushining bezlaridan ajraladigan suyuqlik bo'rsiqning najasi bilan bir xil ekanini inkor qilibsiz.

– Men, ehtimol bu masalada Aesiyga ishonmagan ma'qul, deyish bilan cheklanganman.

Eak quturib ketdi.

– Siz tibbiyot amaliyoti bilan shug'ullanar ekansiz?

– Ha, bu sohada amaliyot bilan shug'ullanaman, – tan oldi yengil xo'rsinib Ursus.

– Tirik odamlardami?

– Murdalarga qaraganda, tirik odamlarda muolaja o'tkazishni afzal ko'raman, – dedi Ursus.

Ursus jiddiy va ayni paytda, kesatiq ohangida javob berayotgandi; ikki ohangning ushbu ajoyib qorishmasida isyonkorlik ruhi yashiringandi. U shunchalar itoat bilan gapirayotgandiki, Eak beixtiyor uni haqorat qilgisi keldi.

– Nimalar deb sayrayapsiz? – so'radi u qo'pollik bilan.

Ursus sarosimalandi va:

– Yosh yigitlar sayrashlari mumkin, qariyalar inqillab gapiradilar, xolos. Afsuski, faqat inqillay olaman, deyish bilan chegaralandi.

Eak davom etdi:

– Ogohlantirib qo'yay: agar bemor odamni davolay boshlasangiz va u o'lib qolsa, sizni qatl etadilar.

Ursus yurak yutib savol berdi:

– U tirik qolsa-chi?

– U holda, – dedi doktor yumshoqroq ohangda, – sizni baribir qatl etadilar.

– Farqi katta emas ekan, – dedi Ursus.

Doktor gapida davom etdi:

– Bemor o'lib qolgudek bo'lsa, jaholat uchun, tirik qolsa jiddu jahd uchun jazoga mahkum etilasiz. Har ikki holatda sizni dorga osadilar.

– Bunday tafsilotlardan bexabar edim, – shivirladi Ursus. – Izohlar uchun tashakkur. Ajoyib qonunchiligimizning barcha nozik tomonlarini bilish hammaga ham nasib etavermaydi axir.

– Qadamingizni o'ylab bosing!

– Ont ichaman – va'da qildi Ursus.

– Nimalar bilan shug'ullanishingizni biz yaxshi bilamiz.

"O'zim buni har doim ham bilavermayman, – xayolidan o'tkazdi Ursus".

– Sizni qamoqqa tashlashimiz mumkin edi.

– Ko'rib turibman, oliyjanob taqsirlar.

– Siz qilmishlaringizni va o'zboshimcha xatti harakatlaringizni inkor eta olmayapsiz.

– Faylasuf sifatida avf etishingizni so'rayman.

– Sizni osiylarcha fikr yuritadi, deb da'vo qilmoqdalar.

– Bu juda dahshatli xato.

– Bemorlarni tuzatib yuborayotgan ekansiz.

– Men – tuhmat qurboniman.

Ursusga shahd bilan yo'nalgan uch juft qosh tahdid bilan chimirildi; uch olim bashara bir–biri tomon egilib, shivirlasha boshladi. Ursusga fanlar olamining uch rasmiy vakili boshlariga bir qalpoq kiygizib qo'yilgandek tuyulib ketdi; uchlikning serma'no va sirli kengashi bir necha daqiqa davom etdi; bu orada Ursusni dam qaltiroq, dam ter bosdi, nihoyat Minos, uchlikning raisi Ursus tomonga o'girildi:

– Hoziroq yo'qoling!

Ursus o'zini baliq qornidan otilib chiqqan Yunus (a.s.) dek his qilayotgandi.

Minos davom ettirdi:

– Bu safar qo'yib yuboryapmiz!

"Ikkinchi marta qo'lingizga tushmayman! Alvido tibbiyot!", o'yladi Ursus.

Va ich ichidan qo'shib qo'ydi:

"Bundan buyon bemorlarga bemalol jon taslim qilaverish imkonini berganim bo'lsin".

Chuqur egilib, u chor atrofga: fan doktorlari, haykallar, chorpoya, devorlarga ta'zim qildi, keyin orqasi bilan eshik tomon yo'naldi va tashqariga chiqib, tarqab ketgan soyadek ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Xonaqoda ekanida u vijdoni pok inson misol asta yurib chiqqan bo'lsa, ko'chaga chiqib olgach, jinoiy ish qilib qo'ygan odamdek yugurib, qocha boshladi. Yaqinroqdan tanishilganda adliya vakillari shunchalar qo'rqinchli va mavhum taassurot uyg'otadilarki, xatto oqlangan inson ham tezroq qochib qolish payida bo'ladi.

Juftagini rostlar ekan, Ursus o'ziga gapirib borardi:

– Oson qutildim. Men – yovvoyi olimman, ular – qo'lbola olimlar. Doktorlar haqiqiy olimlarni ta'qib qiladilar. Soxta ilm haqiqiy ilmning sarqitidir va undan faylasuflarni yo'q qilish uchun foydalanadilar. Faylasuflar soxta notiqlarni tarbiya qilib, o'zlariga choh qaziydilar. Qirg'ovulning axlati tushgan joyda shuvoq o'sadi, undan esa yelim tayyorlab, qirg'ovulga tuzoq qo'yadilar. Turdus sibi malum cacat (Qirg'ovulning najasi o'ziga balodir).

Ursusni o'ta nozik ta'b qilib tasvirlamoqchi emasmiz. U fikrlarini to'liq ifodalashga qodir bo'lgan iboralarni qo'llashdan toymasdi. Bu borada u Volterdan o'tadigan darajada uyatchang emasdi.

"Yashil quti"ga qaytgach, Ursus Nikls amakiga ko'chada zarur ishi chiqib qolgani sababli kech kelayotganini aytdi; boshiga tushgan savdolar haqida indamadi.

Ammo qorong'i tushgach, Gomoning qulog'iga:

– Bilib qo'y: men uch boshli it Serberning ustidan g'alaba qozondim, dedi.



QAYSI SABABLARGA KO'RA OLTIN TANGA MIS CHAQALARGA ARALASHIB QOLISHI MUMKIN?

Kutilmagan voqea yuz berdi.

Tedkaster mehmonxonasi tobora xursandchilik va o'yin kulgi markaziga aylana borayotgandi. Boshqa hech qayerda bunday quvnoq shov–shuv muhiti yo'q edi. Mehmonxona sohibi va uning yugurdagi mijozlarga el, staut va porter quyaverib, holdan toyib qolayotgandilar. Oqshomlari shipi pastgina xonaqoda hamma derazalardan yorug' tushib turar va bitta ham bo'sh joy bo'lmasdi. Ichkilik ichishar, tomoq yirtib, baqirishardi; oldi temir panjara bilan to'silgan va to'latib ko'mir yoqib qo'yilgan o'choqdan lang'illab alanga chiqardi. Qovoqxona gulxan va shovqin suron qarorgohiga aylangandek edi.

Hovlida, ya'ni tomosha zalida, olomon yana ham ko'p edi.

Atrofdagi butun aholi, Sautvorkdagi bor jamoa to'p-to'p bo'lib "Yengilgan zulmat"ni ko'rgani kelishar, natijada parda ko'tarilishi, ya'ni "Yashil quti"ning

ko'tarma sahnasi tushirilishidan oldin hamma joylar band bo'lishga ulgurilardi, derazalar, ayvon hamma-yoq tomoshabin bilan to'lardi.Tosh yotqizilgan hovlida bir qarich ham bo'sh joy ko'zga tashlanmas, hamma yoqni tomoshabinlar egallgandi.

Faqat aslzodalar uchun ajratilgan o'rindiqlar hamon bo'sh qolayotgandi.

Shuning uchun o'ziga xos balkonning markazida bo'shliq paydo bo'lgandi, akterlar bunday joyni "o'ra" deb ataydilar. Hech kim. Chor atrofda olomon, bu yerda esa – hech kim.

Ittifoqo, oqshomlarning birida bu yerning ham egasi chiqdi.

O'sha kuni shanbaydi, bu kuni, yakshanbalik zerikish arafasida, inglizlar ko'ngil ochar joylarga shoshiladilar. Zalga olma otsalar, yerga tushmas darajada odam ko'p edi.

Biz zal, deyapmiz. O'z paytida Shekspir ham mehmonxonaning hovlisida tomosha ko'rsatgan va u yerni zal deb atagan.

Parda ochilib "Yengilgan zulmat"ning muqaddimasi boshlanar ekan, sahnada Gomo va Guinplenning yonida turgan Ursus xaloyiq tomon ko'z tashladi va hayron qoldi.

"Aslzodalar bo'lmasi" band edi.

Bo'lmaning markazidagi utrext baxmali qoplangan orom kursida ayol kishi o'tirardi.

Uning yonida hech kim yo'q edi va ayol yolg'iz o'zi bo'lmani to'ldirib o'tirgandek edi.

Shunday insonlar borki, ulardan shafaq taraladi. Xuddi Deya kabi bu ayoldan ham nur taralayotgan-

di, ammo bu yog'du boshqacha, butunlay boshqacha edi. Deya rangpar, ayol esa qirmizi shafaq edi. Deya otayotgan tong, ayol esa tonggi qizg'ish osmon edi. Deya chiroyli, ayol jozibador edi. Deya bokira, ma'suma, begunoh, ohakdek oppoq edi; ayol xushbichim va qizarinishdan qo'rqmaydiganligi sezilib turardi. Undan taralayotgan nur bo'lmadan tashqariga chiqayotgandek, o'zi esa uning markazida tantanavor, xotirjam, sanamdek qotib o'tirardi.

Yalangoyoqlardan iborat olomon ichida u yoqutdek yarqirar, atrofiga shunday yog'du sochardiki qolgan hamma narsa zulmat ichida qolib ketgandek edi; ayol maftunkorligi bilan atrofdagi barcha xo'mraygan qiyofalarni ko'rinmaydigan qilib qo'ygandi. Uning jozibasi qarshisida hamma narsa xira tortib qolgandi.

Hammaning nigohi sohibjamolga qaratilgandi.

Tomoshabinlar orasida Tom Jim Jek ham bor edi. U ham boshqalar kabi notanish ledining ko'z qamashtirarli jozibasida ko'zga ko'rinmay qolgandi.

Olomonning e'tiborini dastlab o'ziga tortgan ayol "Yengilgan zulmat"dan olinadigan dastlabki taassurotning biroz kuchsizlanishiga sabab bo'ldi.

Ayolga yaqinroq o'tirganlarga u ro'yodek ko'rinsada, gap haqiqiy xonim to'g'risida borayotgandi. Balki haqiqiydan ham ortiqroq xonim edi u. Ayol baland bo'yli, to'lachadan kelgandi; odob yo'l qo'yar darajada yelkalari va ko'kraklari ochiq edi. Qulog'idagi ziraklarga "Angliyaning kalitlari" deb ataladigan g'alati baldoqlar ilingandi. Ko'ylagi oltin bezakli siam ipagidan tikilgan bo'lib, o'ta serhasham edi, bunday ko'ylakning bahosi olti yuz ekyudan kam emasdi.

O'sha davrning behayo an'anasiga ko'ra ko'kraklarni zo'rg'a to'sib turgan kamzulning old tomoniga katta olmos toshli to'g'nog'ich qadalgandi; kamzulchaning o'zi o'ta yupqa frisland hariridan tikilgan bo'lib, bunday matodan qirolicha Avstriyalik Annaning uzuk teshigidan bemalol o'tib ketadigan choyshablari tayyorlanardi. Notanish xonim olmos sovut kiyib olgandek edi, ushbu qimmatbaho toshlarning ichida ishlov berilmaganlari ham bor edi; etagida ham qimmatbaho toshlar qadalgan bo'lib, ulardan ham shu'la taralmoqdaydi. Qoshlariga xitoy siyohi bilan shakl berilgan, qo'llari, tirsaklari, yelkalari, dahani, burun kataklari, qovoqlarining cheti, quloqlarining uchi, kaftlari, barmoqlarining uchiga esa qirmizi rang suykalgan bo'lib, qizg'ish ranglarning mo'lligi xonimga allanechuk hissiyot va joziba bag'ishlayotgandi. U bor tashqi qiyofasi bilan go'zal bo'lishga intilayotgani bilinib turardi. Aslida ham ayol go'zal edi, tilni lol qoldiradigan darajada chiroyli edi. Uni erkatoy mushukcha bo'lib ko'rinishga urinayotgan qoplonga qiyos qilsa bo'lardi. Uning bir ko'zi zangori, ikkinchisi qora edi.

Guinplen Ursus kabi o'sha ayoldan ko'z uzolmay qolgandi.

"Yashil quti" ma'lum darajada afsonaviy ko'rinishga o'xshardi. "Yengilgan zulmat" teatr tomoshasidan ko'ra ko'proq tushdek qabul qilinib kelingandi.

Ursus va Guinplen o'zlarini tomoshabin uchun ro'yoga o'xshash bir narsa deb qabul qilishga o'rgangandilar; endi ro'yo ularga ko'rinish berayotgandi; tomosha zaliga sharpa oralagandek edi; hayajonga tushish navbati ularga kelgandi. Hammani

o'zlariga rom qilib kelgan Ursus va Guinplen endi o'zlari rom bo'lib qolgandilar.

Ayol ularga, ular ayolga tikilib turardilar.

Ursus va Guinplenni ayoldan ajratib turgan masofa anchagina uzoq bo'lganidan va tomosha zalidagi nim qorong'ilik sababli uning qiyofasi yorug'likning tutuni ichda elas elas ko'rinar, sarobga o'xshardi. Ha, shubha yo'q, bu ayol kishi edi, lekin bu tush emasmikan? Zulmat ichidagi g'aribona turmushlariga yorib kirgan bu yog'du ularni shoshirib qo'ygandi. Allaqanday uzoq jannatnamo olamlardan noma'lum sayyora uchib kelgandek edi. O'zidan nur sochayotgan uchun u juda katta ko'rinardi. Osmondagi Somon Yo'li misol ayol yog'du taratayotgandi. Kiyimlariga qadalgan qimmatbaho javohirlarni yulduzlarga qiyoslash mumkin edi. Olmoslardan iborat bog'ich yulduzlar burjiga o'xshardi. Siynalarining ajoyib shakli–shamoili g'ayritabiiydek ko'rinardi. Yulduz monand ushbu xilqatga solingan birgina nazarning o'zidayoq abadiy halovat olamining yaqinligidan seskanish paydo bo'lardi. Ayolning qat'iyatli va xotirjam yuzi "Yashil quti" va uning g'arib tomoshabinlari ustiga jannat tepaliklaridan engashib turganga o'xshardi. Ushbu mahliqoning yuzida ko'rib turgan narsalariga qiziqish va avomning unga qiziqsinib boqishlariga xayrixohlik aks etib turardi. Tog'larning baland cho'qqilaridan pastga tushib, ayol yerdagi maxluqlarga o'zini tomosha qilishga izn bergandek edi.

Ursus, Guinplen, Vinos, Fibi, olomon – ushbu yog'dudan ko'zlari qamashib, badanlariga titroq yu-

gurdi; abadiy tun og'ushidagi Deyagina hech narsani sezmayotgandi.

Ayolning tashqi qiyofasida hech qanday g'ayrioddiylik, xufiyonalik, samoviylik, g'ira–shiralik sezilmasada, u ro'yoni esga solardi; ushbu ro'yo qirmizi rang, tetik va sog'lom edi, biroq yorug'lik unga shu tarzda tushayotgandiki, Ursus va Guinplen turgan joydan ayol xayoliy sharpaga o'xshardi. Bunday to'ladan kelgan arvohlar chindan ham bor: ularni vampirlar deb ataydilar. Ajoyib hilqat bo'lib tuyuladigan bir qirolicha ham yiliga sarflaydigan o'ttiz millionni xalqdan sug'urib oladi va uning ham sog'lig'i juda mustahkam.

Ayolning orqasida, yarim qorong'ilik ichida yosh bola basharali, rangpar, chiroylikkina va jiddiy odamcha – grum, el mozo turardi. Navqiron, ayni paytda serviqor xizmatkorlar u zamonlarda udumga kirgandilar. Grum bosh oyoq olovrang qirmizi baxmaldan kiyingandi; uning oltin ip bilan tikilgan qalpoqchasida musichaning bir siqim pati ko'zga tashlanar va uning aslzodalar xonadoni xizmat ahlining azosi va sohibasining yuqori tabaqalarga tegishli ekanidan darak bermoqdaydi.

Lakey – aslzodalarning ajralmas qismi, binobarin ayolning soyasida turgan paj-etak tashuvchini sezmaslik mumkin emasdi. Xotiramiz ko'p hollarda ixtiyorimizdan qatinazar ko'p narsalarni eslab qoladi; kichkintoy pajning jajji yonoqlari, serviqor qiyofasi va zar gullar solingan hamda pat qadalgan qalpoqchasi xotirasida ekani Guinplenning xayoliga kelmayotgandi. Qolaversa, grum o'ziga kimlarningdir e'tiborini tortish istagidan uzoqdaydi: o'zgalar e'tiborini tortish

sohibaga hurmatsizlik demakdir; u befarq qiyofada, sohibasidan iloji boricha nariroqda, bo'lmaning ichkarisida, eshik yonida turardi.

Yonginasida muchacho, yugurdagi, paji turgan bo'lsa-da, bo'lmada ayol butkul yolg'izdek ko'rinardi, xizmatkorlar hisobga kirmaydilar.

Paydo bo'lishi tomoshaning bir qismidek tuyulib ketgan xonimdan olingan taassurot qanchalar katta bo'lmasin, "Yengilgan zulmat"ning yakuniy qismidan tomoshabinlar yanada kuchliroq larzaga tushdilar. Natija har doimgidek beqiyos bo'ldi. Tomosha zalida sohibjamol xonimning borligi (tomoshabin har doim spektaklning ishtirokchisi sanaladi) olomonning tuyg'ularini yanada junbushga keltirgan bo'lsa ajab emas. Bu oqshom Guinplenning kulgusi hardoimgidan ham ta'sirli bo'ldi. Hamma istisnosiz tasvirlab bo'lmas xursandchilik to'lqinida qotib, qotib kuldi va barcha ovozlar orasida Tom Jim Jekning salobatli kulgusi keskin ajralib turdi.

Sahnaga ro'yoning befarq ko'zlari bilan tikilib, butun oqshom haykaldek qotib o'tirgan notanish xonimgina aqalli jilmayib ham qo'ymadi. Ha, u haqiqiy ro'yo edi, ammo quyosh kamalagi misol yorqin ro'yo edi.

Tomosha tugab, aravaning yon to'sig'i ko'tarib qo'yilgach, "Yashil quti"da istiqomat qiluvchilar odatdagidek tor davrada to'plandilar va Ursus kechki ovqat uchun tayyorlab qo'yilgan stol ustiga qopchadagi tushumni to'kdi. Birdaniga mis chaqalar uyumi orasida ispan oltin unsiyasi yarqirab ko'rindi.

– Bu o'sha! – xitob qildi Ursus.

Ko'karib ketgan mis chaqalar orasida chindan ham, avom xalq orasida o'sha ayol misol, oltin unsiya yarqiramoqdaydi.

– U o'tirgan joyi uchun kvadrupl tashlab ketibdi! – davom etdi zavqlanib Ursus.

Shu lahzada "Yashil quti"ga mehmonxona sohibi kirib keldi. U qo'lini aravaning orqa devoridagi darchaga tiqib, uni ochdi, aytib o'tganimizdek, bu darchadan butun maydon ko'zga ko'rinib turardi. Xo'jayin Ursusni yoniga chaqirib, maydonni ko'rsatdi. Ajoyib otlar qo'shilgan, chiroyli qilib bezatilgan, patlar qadalgan shlyapalar kiyib, mash'ala ushlagan xizmatkorlari bo'lgan kareta katta tezlikda qovoqxonadan uzoqlashmoqdaydi.

Kvadruplni bosh va ko'rsatgich barmoqlari orasida ehtiyotlik bilan ushlab turgan Ursus uni Nikls amakiga ko'rsatib:

– U ma'buda, dedi.

Keyin uning ko'zi chorrahada burilayotgan karetaga tushdi; aravaning tomida mash'alalarning yog'dusi sakkiz qirralik tojni yoritib ketmoqdaydi.

Shunda Ursus:

– Yo'q, u ma'budadan ham yuqori! U gersoginya!

Kareta ko'zdan yo'qoldi. G'ildiraklar tovushi uzoqlarda singib ketdi.

Ursus tabarruk hadyaga ehtirom ko'rsatayotgandek kvadrupl ushlab turgan qo'lini baland ko'tarib bir necha lahza qimirlamay turdi.

Keyin tangani chorpoya ustiga qo'ydi va undan ko'zini uzmasdan "beka" to'g'risida gapirishga tushdi.

Mehmonxonasi egasi Ursusning savollariga javob berayotgandi. Ha, u gersoginya edi. Nasl nasabi ma'lum. Ismichi? Ismini hech kim bilmaydi. Ammo Nikls gerblar tushirilgan va oltin livreyalarda xizmatkorlari bo'lgan karetani yaqindan ko'ribdi. Aravakashning yasama sochi lord kanslerniki bilan bir xil edi. Bunday karetalar kam uchraydi, ustiga toj qo'ndirilgan tom qismi tobutning qopqog'ini eslatgani sababli, bu ajoyib aravani Ispaniyada "tobut arava" deb ataydilar. Grum shunchalar pakana ediki, bemalol eshikning orqa tomonidagi pillapoyaga sig'ardi. Odatda bu jajji mavjudotlar aslzoda xonimlarning etak uchlarini ko'tarib yuradilar; ba'zan esa, ularga ishqiy maktublarni yetkazish topshiriladi. Grumning qalpoqchasidagi bir siqim kabutar patiga kimning ko'zi tushdi? Bu belgi bekaning aslzoda ekanini so'zsiz tasdiqlaydi. Kimki, tegishli huquqqa ega bo'lmay turib, yugurdagining bosh kiyimiga shunday patlarni qadaydigan bo'lsa, jarima to'laydi. Nikls xonimning o'zini ham yaqindan ko'ribdi. Haqiqiy qirolicha. Bunchalar boylik insonga husn bermay qolmaydi. Terisi ham oppoq bo'ladi, qarashlari mag'rurroq, oliyjanob qadamlar, xatti-harakatlarda ham ko'proq ishonch seziladi. Bir umr mehnat nima bilmagan qo'llarning nafosatiga hech narsa teng kela olmaydi. Nikls notanish xonimning ko'k tomirlari bilinib turgan terisi, bo'yni, yelkalari, qirmizi yonoqlari, dur ko'zli ziraklari, oltin upa sepilgan sochlarining turmagi, ko'plab qimmatbaho toshlar, yoqutlar, olmoslarining dabdabasini tasvirlay ketdi.

– Uning ko'zlari javohirlaridan yorug'roq nur sochadi, – vaysadi Ursus.

Guinplen sukut saqlamoqdaydi.

Deya quloq solib turardi.

– Hammadan hayratlanarlisi, bilasizlarmi nima? – so'radi qovoqxonachi.

– Nima – so'radi Ursus.

– Uning karetaga o'tirayotganini ko'rdim.

– Nima bo'libdi?

– U bir o'zi emasdi.

– Shunday degin!

– Yana bir odam karetaga o'tirdi.

– Kim?

– O'zingiz toping.

– Qirolmi? – dedi Ursus.

– Birinchidan, – gap qistirdi Nikls, – bizda endi qirol yo'q. Qirolicha bizlarni boshqaryapti. Gersoginyaning karetasiga kim o'tirganini toping axir.

– Yupiter, – dedi Ursus.

Qovoqxonachi javob berdi:

– Tom-Jim-Jek.

– Tom-Jim-Jek? – xitob qildi hozirgacha jim o'tirgan Guinplen.

Hamma hayratdan qotib qolgandi. O'rtaga jimlik cho'kdi. Va ushbu sukunat ichida Deyaning mayin tovushi kutilmaganda yangradi:

– O'sha ayolni bu yoqqa boshqa kirgizmaslikning iloji yo'qmi?



ZAHARLANISH BELGILARI

"Ro'yo" ko'rinmay ketdi.

U bo'lmaga qaytmadi, lekin Guinplenning qalbida qayta gavdalandi.

Guinplen hayajonda edi.

Nazarida hayotida birinchi marta ayol kishini ko'rgandek edi.

Va tez orada g'ayrioddiy xayollarga berilib, yarim gunoh qildi. Ixtiyorimizga bo'ysunmay bizni qamrab oladigan xayollardan ehtiyot bo'lishimiz kerak. Orzularda yashirin ufor va sirlilik bor. Ular xayollarimizga giyohlarning sarxush hidi misol ta'sir qiladilar. Ba'zan ular, zaharlovchi ufor misol, bizni mast qiladilar va is kabi xayollarimizni zaharlaydilar. Ayrim gullar kabi, orzulardan ham zaharlanib qolish mumkin. Xush yoqadigan, ajoyib va dahshatli o'z joniga qasd qilish!

Bema'ni xayollar bilan biz ruhimizni o'ldiramiz. Zahar ana shu xayollarda! Orzu bizni jalb qiladi, sevdiradi, choh sari yetaklaydi, to'riga tushiradi, keyin bizni o'ziga sherik qilib oladi: qalbingizni aldashda orzuning sherigiga aylanasiz, qolasiz. Orzu sarxush qiladi, keyin buzadi. Uni qimorga o'xshatsa bo'ladi. Inson avvaliga firibgarlikning qurboniga aylanadi, keyin esa, o'zi ham aldashga tushadi. Guinplen orzularga berildi.

U hech qachon Ayolni ko'rmagandi.

Oddiy xalqdan chiqqan ayollarda uning soyasinigina ilg'ar, qalbini esa Deyada ko'rib kelgandi.

Endi u haqiqiy ayolni ko'rgandi.

U issiq, ostida qaynoq qon ufurayotgan nafis terini; marmar misol silliqligi va to'lqinlar kabi egiluvchanligi bilan maftun qiluvchi badan a'zolarini; bir vaqtning o'zida ham da'vat, ham inkorni ifodalovchi cho'zinchoq hissiz yuzni, ko'zni qamashtirar darajada go'zal yuzni; yong'in yorug'i tushib turgan sochlarni; ehtiros titrog'iga soluvchi nafis kiyim kechaklarni; shahvatni qo'zg'atuvchi badanning ochiq yerlari vositasida uzoqdan turib olomonniki bo'lishdek kiborlarcha istakni; betakror nazokatni; amalga oshmas istakni; halokatga boshlovchi istakni; hissiyotlarga va'dani va aql hushga tahdidni; istak va qo'rquvdan iborat ikki tomonlama bezovtalikni ko'rgandi. U ayolni uchratgandi. U tom ma'nodagi ayolni, juftni ko'rgandi. Ayni paytda ayol farishta monand edi. Olimp tog'ining ma'budasi edi. Guinplen jinslar sirini kashf qilayotgandi. Qayerda deng? Tasavvur qilib bo'lmas, yetib bo'lmas masofada. Taqdir o'yinini qarangki, qalbi ilohiy uning qo'llaridaydi – bu Deya edi; ammo foniy narsa – ayol vujudini u faqat uzoqdan, qo'li yetmaydigan cho'qqida ko'rayotgandi – bu o'sha ayol edi.

Gersoginya!

"U ma'budadan ham balandda", – Ursus o'sha ayol haqida shunday degandi.

Qanchalar yuksaklik!

Bunday tik balandlikka ko'tarilishni orzu qilishning o'ziyoq qo'rqinchli edi.

O'sha notanish ayol to'g'risida xayol surishi jinnilik emasmi? Guinplen bu telbalikni yengishga urina boshladi.

U Ursus ana shunday oliy nasab, deyarli qirollarga qondosh xonimlarning hayotlari to'g'risida nimalarni aytib bergan bo'lsa, hammasini eslay boshladi; faylasufning hozirgacha unga ahamiyatsiz tuyulgan vaysashlari bo'lak, bo'lak bo'lib xayolida jonlana boshladi, – ko'p hollarda xotiramiz ustiga unut bo'lishning o'ta nafis pardasi tashlangan bo'ladi, ammo zarur daqiqalarda biz parda tagida nimalar yotganini ko'rishga muvaffaq bo'lamiz. Guinplen o'zi mansub bo'lgan oddiy xalq hayotidan, pastdagilar dunyosidan juda balandda bo'lgan o'sha ayolning, aslzodalarning dunyosini tasavvur qilishga urinardi. Qolaversa, o'zini qora xalqqa mansub deb o'ylashi to'g'ri bo'larmikan? Axir u, bor yo'g'i bir masxaraboz eng tubanlikdagilardan ham tubanroqda emasmidi? Fikrlay boshlaganidan beri birinchi marta uning yuragi tuban ahvoli, hozir biz xo'rlanish deb atashimiz mumkin bo'lgan hissiyotdan siqildi. Ursus aytib bergan manzaralar, hayajonlanib tasvirlagan qasrlar, bog'lar, favvoralar, ustunli shiyponlar, aslzodalarning boyligi va qudrati to'g'risidagi mufassal hikoyalari Guinplenning xotirasida jonlanar, haqiqat va xayolot olami ayqash–uyqash bo'lib ketardi. Nazarida insonning lord bo'lishi mumkinligi sarob bo'lib tuyulardi. Nafsilambirini aytganda esa, bunday odamlar bor edi. Ha, aql bovar qilmaydi, ammo bor edi! Ular ham hamma odamlarga o'xshab ustixon va etdan yaralganmikan? Ishonish qiyin. Guinplen o'zini zulmat ichida, to'rt tomonidan devor o'rab olgan-

dek his qilayotgandi; quduqqa tashlangan odamdek, u yuqorida, ufqda, boshining ustginasida Olimpdagi ilohlar qarorgohini – lojuvard osmon, yorug'lik va qiyofalar olamini, ularning o'rtasida esa, atrofga nur taratayotgan gersoginyani tasavvur qilardi.

Unda ushbu ayolga nisbatan yengib bo'lmas istak va ayni paytda uning visoliga yetib bo'lmaslikni anglashdan iborat g'alati hissiyot tug'ilgandi. Va u aql bovar qilmas xayollarni takror va takror suraverardi: uning qalbini yaqindan, yonidan his qilish, yonma–yon, unga teginar darajada qadam tashlash va qachonlardir, tasavvur qilib bo'lmas istiqbolda unga yetishish.

Bu xayollarning birortasini aniq tasavvur deb bo'lmasdi. Hammasi allaqanday tuman ichida, har lahzada shakl shamoyili o'zgarib turadigan, noaniq edi. Bularning hammasini tuyg'ular faryodi, deb atash to'g'ri bo'lardi.

Gersoginyaga yaqinlashishga urinib ko'rish fikri uning xayoliga kelmasdi ham. U bunday yuksaklikka ko'tarilishni tasavvurida ham o'ziga ep ko'rmagan bo'lardi. Va Guinplenning baxti ana shundaydi.

Axir bunday narvonning dastlabki pog'onasiga oyoq qo'yishing bilan uning titrashi bir umrga esdan og'dirib qo'yishi aniq: Olimpga chiqyapman, degan xayolda o'zingni London jinnixonasidan topasan. Maylni aniq tasavvur qilishdan Guinplen dahshatga tushgan bo'lardi. Ammo uning xayollari bundan uzoqdaydi.

Qolaversa, o'sha ayolni u yana ko'radimi, yo'qmi? Hech qachon ko'rmasligi ehtimolga yaqinroq edi.

Ufqda birdaniga yarq etgan shafaqqa oshiq bo'lib qolish – bunday telbalikka hech kim qodir emas. Yulduzga asir bo'lishni tushunsa bo'ladi: u yana osmonning o'sha yerida paydo bo'ladi. Ammo yarq etgan yashinga ko'ngil qo'yish mumkinmi?

Guinplenning qalbida orzular tug'yon urayotgandi. Ularda bo'lmaning to'rida nur sochib o'tirgan o'sha oyruxsor va serviqor ayol qiyofasi dam paydo bo'lar va dam yo'qolardi.

U dam ayol to'g'risida o'ylar, dam uni unutar, dam biror narsaga alahsib ketar, va yana o'sha bir xil xayollariga qaytaverardi. Xayollari uni allalayotganga o'xshar, ammo uxlata olmasdilar.

Bir necha tun u uxlay olmadi. Uyqusizlikda, uyqudagi kabi, behisob narsalar ko'zimizga ko'rinadi. Miyamizda kechayotgan g'ira-shira jarayonlarni aniq so'zlar bilan ta'riflashning deyarli imkoni yo'q. Xayollarimiz chiziqlariga qaraganda so'zlar aniqroq qobiqlarga egalar va shunisi bilan noqulaylar. Aniq chizgilarga ega bo'lmagan xayollarimiz ayqash uyqash bo'lib ketadilar, so'zlar esa – boshqa dunyo. Shuning uchun har doim qalbimizning g'ira shira qismini so'zlar ta'riflashga ojizlar. So'zlarda chegara bor, xayollar esa chegara bilmaydilar.

Ichki dunyoimiz shunchalar keng va tushunarsizki, Guinplenning qalbidagi kechinmalarning Deyaga deyarli hech bir aloqasi yo'q edi. Deya Guinplen xayollarining markazidaydi, u muqaddas edi; hech bir narsaning unga aloqasi bo'lishi mumkin emasdi.

Ayni paytda, hamonki inson qalbi shunga o'xshash qarama-qarshiliklardan iborat ekan, uning ichida ku-

rash borayotgandi. Uning o'ziga bu sezilarmidi? Ehtimol buni u to'liq bo'lmasa-da, anglayotgandi.

Qalbining eng teran, eng nozik, har kasda darz ketishi mumkin bo'lgan yerida, ziddiyatli istaklar kurashi borayotganini u his qilayotgandi. Ursusku hammasini tushunib turardi. Guinplen yo'l tanlashga qiynalayotgandi.

Uning ichida ikki tuyg'u: orzuga intilish va ayolga intilish tuyg'usi o'zaro kurashayotgandi. Tubsizlik uzra tashlangan ko'prik ustida oq va qora farishtalar o'rtasida bunday kurashlar tez-tez bo'lib turadi.

Nihoyat qora farishta mahv etildi.

Kunlarning birida to'satdan Guinplen notanish xonim to'g'risida o'ylamay qo'ydi.

Ikki ibtido kurashi, Guinplen qalbining eng sirli yerlarida boqiy va foniy haqqoniyat o'rtasidagi jang shu qadar teran joyida ro'y berib o'tgandiki, yigitning ongigacha deyarli yetib bormagandi.

Bir narsa shubhadan xoli edi: Guinplen bir lahzaga bo'lsa ham Deyani ardoqlashdan to'xtamagandi.

Nazarida juda uzoq yillar avval vujudi junbushga kelib, qoni bir qaynab olgandi, endi bularning hammasiga chek qo'yilgan, faqat Deya qolgandi.

Deya bir daqiqaga bo'lsa ham xavf ostida qolgandi, deyishsa, Guinplen hayron bo'lgan bo'lardi.

Bir yo ikki hafta o'tib ushbu ikki vujudga xavf solgandek ko'ringan ro'yo g'oyib bo'ldi.

Guinplenning qalbi yana Deyaga muhabbat alangasida yona boshladi.

Gersoginya ham, aytib o'tganimizdek, boshqa qaytmadi.

Ursus buni odatiy hol deb qabul qildi. "Kvadruplik xonim" g'ayrioddiy hodisa. Bunday ro'yo faqat bir marta keladi, joyiga oltin bilan haq to'laydi va izsiz yo'qoladi. Bu holat takrorlanaversa hayot juda ajoyib ko'rinib ketgan bo'lardi.

Deyaga kelsak, u o'tmishga aylanib qolgan o'sha ayolni hatto eslamasdi ham. Ehtimol u gap–so'zlarga quloq solgan chiqar; Ursusning xo'rsinishlari va vaqti –vaqti bilan: "Oltin unsiyani har kuni ham beravermaydilar!" deb qo'yishlari qizda allaqanday xavotirlik uyg'otgandi. Endilikda u o'sha notanish xonim to'g'risida umuman og'iz ochmayotgandi. Bunda chuqur tug'ma hissiyotning o'rni ko'rinib turardi. Inson qalbi ba'zan o'zi ham sirini anglamagani holda, o'z – o'zidan ehtiyot choralarini ko'ra boshlaydi. Biror kimsa to'g'risida gapirmay qo'ysang, uni o'zingdan uzoqlashtirayotgandek bo'lasan. U to'g'rida so'rab surishtira boshlab esa, o'zingga yaqinlashtirib qo'yishdan xavfsiraysan. Eshikni qulflab, o'zingni qanday himoyalasang, sukut saqlab, ihotalanishing mumkin.

Voqeani unutdilar.

E'tibor qaratishga u arzirmidi? Umuman shu ish sodir bo'ldimi, yo'qmi? Guinplen va Deya orasidagi munosabatlarga sovuqlik oralagandek bo'ldi, deb aytsak o'rinlimi? Deyaning bulardan xabari yo'q edi, Guinplen esa unutib yuborgandi. Yo'q, hech narsa sodir bo'lmagandi ham. Gersoginyaning qiyofasi ro'yo misol uzoqlarda g'oyib bo'lgandi. Shunchaki Guinplen bir daqiqaga orzularga berilib, endi uyqudan uyg'ongandi. Tarqab ketgan tuman kabi, tarqab ketgan orzular suzib o'tib ketgan bulut misol iz qol-

dirmaydilar; bundan ko'kdagi quyosh kabi, qalbdagi muhabbatga ozor yetmaydi.



ABYSSUS ABYSSUM VOCAT – TUBSIZLIK TUBSIZLIKKA OVOZ BERADI

Yana bir qiyofa – Tom-Jim-Jek ham g'oyib bo'lgandi. Kutilmaganda u Tedkaster mehmonxonasiga kelmay qo'ydi.

Jamiyatdagi o'rinlari London zodagonlari oliy dunyosining har ikki tomonini kuzatishga imkon beradigan odamlar "Hafta yangiliklari"da chaqaloqlarning dunyoga kelgani to'g'risida cherkovning ikki xabari orasida "Hazrati oliyalarining farmonlariga ko'ra lord Devid Derri-Moyrning jo'nab ketishi" to'g'risidagi xabarni o'qigan chiqarlar; u Gollandiya qirg'oqlari bo'ylab suzib yurgan "oq eskadra" tarkibidagi fregatga yana qo'mondonlik qila boshlashi lozim edi.

Ursus Tom-Jim-Jekning "Yashil quti" tomoshalariga kelmay qo'yganini sezdi; buning sababi uni juda qiziqtirib qo'ydi. Tom-Jim-Jek oltin tanga to'lagan xonim bilan bir karetada jo'nab ketganidan kundan boshlab qorasini ko'rsatmasdi. Albatta, gersoginyalarni o'g'irlab ketadigan bu yigit topishmoq edi. Bu

hodisning taftishi bilan shug'ullanish naqadar qiziq ish bo'lardi! Savollar bisyor edi! Qancha taxmin to'qib tashlasa bo'lardi!

Hayoti davomida ko'p savdolarni boshidan kechirgan Ursus ortiqcha qiziquvchanlik qilib og'zini yaxshigina kuydirib olishi mumkinligini yaxshi bilardi. Qiziquvchanlik har doim qiziquvchining jamiyatdagi o'rni bilan mutanosib bo'lishi kerak. Birovlarning gapini xufyona tinglab qulog'ingdan ayrilishing, berkinib tomosha qilsang ko'zingdan ayrilib qolishing mumkin. Eng aqlli ish – hech nimani ko'rmaslik, hech nimani eshitmaslik. Tom-Jim-Jek aslzoda xonimning karetasiga o'tirgandi, o'tirayotganini mehmonxona soxibi ko'rgandi. Ledining yonidan joy olgan dengizchi Ursusga g'alati ko'rinayotgandi va u hushyor tortdi. Past tabaqa vakillari uchun aslzodalarning qiliqlari tabarruk sanalishi kerak. Balchiq ichida sudralib yuruvchilarga, oqsuyaklar qora xalq deb ataydiganlarga, g'ayrioddiy hodisalarga ko'zlari tushib qolgudek bo'lsa, eng yaxshi ish iniga kirib olishdir. Jim o'tiradigan odamgina omonlikda bo'ladi. Agar omadingiz chopib tug'ma ko'r bo'lmasangiz, ko'zlaringizni yumib oling; baxtingizga kar bo'lmasangiz, quloqlaringizni berkiting; soqov bo'lishdek qusuringiz bo'lmasa, tilingizni tiying. Bu olamning zo'rlari nimani xohlasalar, niyatlariga yetadilar, mayda odamlar – nima qo'llaridan kelsa, shuni qiladilar; bizga noma'lum bo'lgan narsalardan nari bo'laylik; ko'rinib turgan tomoniga ta'zim qilaylik. Bizga noma'lum sabablarga ko'ra fazoda yoritqichlarning so'nishi yoki paydo bo'lishi to'g'risida

behuda gap sotishlarni qo'yaylik. Biz, haqir kimsalar uchun, ko'pincha ko'zimizga shunday ko'rinadi, xolos. O'zgarishlar – xudolarning ishi; tasodifan uchratganimiz bizlardan yuqorida javlon uradigan aslzodalarning o'zgarishlari yoki g'oyib bo'lishlari – tushunib bo'lmaydigan, o'rganilishi esa, xatarli hodisalardir. O'z qiliqlari va ermaklari bilan band olimpdagilarga ortiqcha e'tibor berib, noroziliklariga sababchi bo'lib qolishimiz mumkin; koinotda ho'kiz burji deb o'ylaganingizni aslida Yupiter ekanini chaqmoq vositasida tushuntirib qo'ymasinlar tag'in. Taqdirlarimizni hal qiluvchilarning etaklaridagi g'ijim joylarni tekislamay qo'ya qolaylik. Befarq bo'lish donishmandlikdir. Qimirlamang – aziyat yetkazmaydilar. O'zingizni o'lganga soling va sizni o'ldirmaydilar. Hasharotlarga xos donishmandlik ana shulardan iborat. Ursus unga amal qilardi.

Voqeadan o'ta hayratlangan mehmonxona sohibi bir kuni Ursusga murojaat qildi:

– Bilasizmi, negadir Tom-Jim-Jek ko'rinmay qoldi.

– Shundaymi? – javob qildi Ursus. – Sezmabman ham.

Nikls Tom Jim Jekning gersoglar karetasida ketgani xususida haqoratomuzroq nimadir dedi, ammo aytganlari Ursusga o'ta ehtiyotsizlik bo'lib tuyuldi shekilli, qariya ularni eshitmaganga oldi.

Ammo Ursusda artist tabiati ustun kelganidan Tom–Jim–Jekning kelmayotganidan taassufda edi. O'z kechinmalari bilan u faqat o'zi to'liq ishonadigan yagona maxluq Gomo bilan o'rtoqlashardi. U bo'rining qulog'iga:

– Tom–Jim–Jek kelmay qo'yganidan beri atrofimda bo'shliqni his qilyapman, shoir sifatida esa, ilhomimni yo'qotdim, – dedi.

Qalban yaqin maxluqqa ichidagini to'kib solib, Ursus biroz yengillik his qildi.

Guinplenga u bu to'g'rida umuman og'iz ochmadi, yigit bo'lsa o'z navbatida Tom–Jim–Jekni bir marta bo'lsa ham eslamadi.

Aslida Guinplen faqat Deyani o'ylar va Tom–Jim–Jek uni deyarli qiziqtirmasdi.

Kunlar o'tishi bilan Guinplen notanish xonimni ko'proq unutib boraverdi. Deyaga kelsak, u sevganining qalbidagi qisqa muddatli bo'lsa ham iztirobni sezmay qolgandi Bu paytga kelib "Kulayotgan odam"ga qarshi fitna va shikoyatlar to'xtadi. Hasadgo'ylar jimib qolgandek edilar. "Yashil quti"da ham, uning atrofida ham shov–shuvlar bosildi. Masxarabozlar va ruhoniylarni yer yutib yuborgandek edi. Momaqaldiroqning so'nggi gulduroslari tinib qoldi. Daydi artistlarning muvaffaqiyatiga hech narsa tahdid solmayotgandi. Ba'zan insonlar taqdirida ana shunday to'liq xotirjamlik pallasi bo'lib o'tadi. Ushbu pallada Guinplen va Deyaning musaffo muhabbatiga hech bir narsa tahdid solmadi. Astalik bilan baxt o'zining eng yuqori nuqtasiga yetdi. Bunday holatni ifodalovchi so'z bor – apogey. Dengizda suv ko'tarilishiga o'xshab baxt ba'zan o'zining eng yuqori darajasiga yetadi. To'la baxtiyor insonlarni birgina xayol bezovta qiladi – ko'tarilib bo'lgach, suv yana qaytadi.

Xatarni ikki usul yordamida yengish mumkin: yo juda balandda bo'lish kerak, yo juda pastda. Ikkin-